

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix FAKULTETI

402 -guruhi talabasi Primov Jasurbek Islombekovichning

5141500 "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va xuquq ta'limi" yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: O'zbekistonda demokratik saylov tizimi va uning huquqiy asoslari

Ilmiy rahbar:

dots. O.Abdullaev

Urganch 2013 yil

1-ilova. Bitiruv malakaviy ishining titul varag'i

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix
(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
(kafedra nomi)

O'zbekistonda demokratik saylov tizimi va uning huquqiy asoslari
(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi:
Rahbar

Primov Jasurbek
dots. Ozod Abdullaev

Urganch shahri
2013-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix

(fakultet nomi)

Milliy foya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

Talaba. Primov Jasurbekga Universitet rektorining «189T 1&»-sonli 25dekabr 2012 yil buyruqi bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “O'zbekistonda demokratik saylov tizimi va uning huquqiy asoslari” mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan. dots. O. Abdullaev

bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Bitiruv malakaviy ish-Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig'ilishlari materiallaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

5. Bitiruv malakaviy ishga _____

_____ **ilova qilinadi.**

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>No</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
-----------	-----------------------------------	-------------------------

1.	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2012 yil dekabr
2.	Materiallar izlash	2013 yil yanvar
3.	Ishning kirish qismini tayyorlash	2013 yil fevral
4.	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish	2013 yil mart
5.	I I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish	2013 yil aprel
6.	Ishning xulosasini tayyorlash	2013 yil may
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish	2013 yil may

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

dots. O. Abdullaev

Bajaruvchi talaba:

Primov Jasurbek

2012 yil «29» dekabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2012 yil tasdiqlandi

(«9»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

dots. O. Abdullaev

(imzo)

**BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING
MULOHAZALARI**

Talaba: Primov Jasurbek

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: O'zbekistonda demokratik saylov tizimi va uning huquqiy asoslari

Bitiruv malakaviy ish xajmi: 72 sahifa

Tushuntirish qismi: 61 sahifa

Ilovalar soni: -

Mavzuning dolzarbligi: Demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish o'ta murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, unda saylovlarning ahamiyati beqiyosdir. SHu bois mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq bu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda yurtimizda shu borada xalqimizning boy milliy qadriyatlari va tarixiy davlatchilik an'analari, saylovga oid xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va rivojlangan davlatlarning ilfor tajribalari asosida mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. U fuqarolar va jamoat tashkilotlarining davlat hokimiyatini shakllantirish hamda davlat boshqaruvidagi erkin ishtirokini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Primov Jasurbek barcha fanlarni to'la o'zlashtirib, ularni amaliyotga qo'llash ko'nikmasiga ega.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari Primov Jasurbek o'zi mustaqil ishlay oladi, mahsus adabiyotlardan foydalanish qobilyatiga ega. O'zining mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o'z ustida muntazam ishlaydi. Muomulasi yaxshi, ishga mas'uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Ishda O'zbekistonda demokratik jarayonlarni rivojlantirishda hamda axolining davlat xokimiyatini boshqarishdagi ishtirokini ta'minlashda saylov tizimining roli va ahamiyati aniq faqtlardan foydalanilgan xolda har tomonlama chuqur yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi.

Ish to'la talabga javob beradi. Uning materiallaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

dots. O. Abdullaev

(f.i.sh.)

2013 yil «25» may

Urganch davlat universiteti

Tarix fakulteti

Milliy foya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishining

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi. O'zbekistonda demokratik saylov tizimi va uning huquqiy asoslari

Malakaviy ishning hajmi. 12 ming co'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 61 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: _____

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi.
Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy o'rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va xajmi o'z aksini topgan bo'lib, to'la talabga javob beradi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalaridan, prezident asarlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Ishda mavzuga oid barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil

qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to'la asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari ko'rsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi: _____ UrDU Milliy foya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
kafedrasi o'qituvchisi Saidov Xakim
(imzo) (mansabi, ish-joyi, darajasi, f.i.sh.)

2013 yil «31» may

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. CHet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

6-ilova

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi Narboev Hamidning "Mahalla- axolini manzilli ijtimoiy himoyalash markazi" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «____» 2013 yil «____iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. CHet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. _____

mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va «____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2013 yil «____» _____

Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Primov Jasur

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: O'zbekistonda demokratik saylov tizimi va uning huquqiy asoslari

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: dots. O. Abdullaev

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil «29» mayda o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Saidov Xakim tayinlandi.

Kafedra mudiri:

dots. O. Abdullaev

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

dots. T. Abdullaev

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 5141500 ta'lim bakalavr

Tasdiqlayman

fakultet dekani

dots. _____

“ ____ ” _____ 2013 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Primov Jasurbek

Ishning mavzusi: O'zbekistonda demokratik saylov tizimi va uning huquqiy asoslari

«25 dekabr 2012 yil universitet rektorining 189t 1& sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ____ ” _____ 2013 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati.

- a) Abdusattarov J. Yangi parlament saylovlarida siyosiy partiyalarning roli. Demokratlashtirish va inson huquqlari. T-2004y
- b) Abdusalomov M. Saylov demokratiya ko'zgusi. Huquq va burch. 2009y. 10 son
- v) Ahmedov D, Hoshimhonov A O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi va jarayoni. T. “O'zbekiston”, 2007 y
- g) Abdullaev J. Husanova M Saylov huquqi erkinligining kafolati. Xalq so'zi. 2013y. 23 yanvar
- d) Abdusalomov M. Saylov jarayoni demokratlashuvining muhim kafolatlari. O'zbekiston ovozi. 2013 y. 29 yanvar
- e) Latifov A Saylovlarda siyosiy partiyalar va xarakatlar faolligi. Huquq va burch. 2009y. 10 son

4. Ishning maqsadi: Ishda mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik saylov tizimining shakllanishi va uning huquqiy asoslarini atroflicha tahlil qilish va umumlashtirish asosiy maqsad hisoblanadi.

5. CHizma materiallar ro'yxati: _____

6. Maslahatchilar: _____

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi

Ishga taqriz yozuvchining F.I.SH., ilmiy darajasi, unvoni: Saidov Xakim

7. Ilmiy rahbar: Abdullaev Ozod

BMI bajaruvchi talaba: Primov Jasurbek

(F.I.SH.)

(imzo)

Kafedra mudiri: dots. O. Abdullaev

(F.I.SH.)

(imzo)

**Mavzu: O'zbekistonda demokratik saylov tizimi
va uning huquqiy asoslari**

REJA:

Kirish.....15-19

I - Bob. O'zbekistonda demokratik saylovlar tizimi

1.1 Saylov tizimining huquqiy asoslari.....20-31

1.2 Demokratik saylov tizimi.....32-45

II- Bob.Fuqarolik jamiyati va saylovlar

**2.1 Saylovlarda siyosiy partiyalar va xarakatlarning
ishtiroki.....46-53**

2.2 Saylovlar va ommaviy axborot vositalari.....54-62

Xulosa.....63-65

Adabiyotlar ro'yxati.....66-68

Kirish

Mavzuning dolzarbligi

Demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish o'ta murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, unda saylovlarning ahamiyati beqiyosdir. SHu bois mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq bu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda yurtimizda shu borada xalqimizning boy milliy qadriyatlari va tarixiy davlatchilik an'analari, saylovga oid xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalari asosida mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. U fuqarolar va jamoat tashkilotlarining davlat hokimiyatini shakllantirish hamda davlat boshqaruvidagi erkin ishtirokini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridan bo'lgan saylov huquqi qonun bilan belgilab qo'yiladigan bir qancha bosqichlardan iborat. Prezidentimiz ta'kidlaganidek : “ Demokratiya hamma joyda bir xil. Uning umumiy tamoyillari hamma uchun tushunarli: bu-demokratiyaning ajralmas qismi bo'lgan xalq hokimiyati, xalqning hohish-irodasi va ochiq, erkin saylovlardir. Bu-oxir-oqibatda har qanday demokratiyaning eng yuqori pog'onasi bo'lgan fuqarolik jamiyatidir”.¹

Erkin saylov va o'z hohish-irodasini erkin bildirish printsiplari, birinchi navbatda, har bir shaxsning davlat xokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi. Saylovlar – bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z hohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir.²

O'zbekiston xalqining bosh maqsadi xuquqiy demokratik davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish ekan, bunda, eng avvalo, xalqning xohish-

¹ Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12 jild. T: “O'zbekiston”, 2004. 163 b

² Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T: “O'zbekiston”, 2010. 35 b.

irodasi birlamchi manba sifatida e'tirof etilgan. Ushbu tamoyil umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash va xalqaro umume'tirof etilgan qoidalarining ustuvorligini ta'minlashda asosiy va birlamchi omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida, jumladan, "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi" degan muhim qoida belgilangan. Mazkur konstitutsiyaviy qoida halq hokimiyatchiligini ta'minlash uchun hokimiyat vakillik organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirishni ko'zda tutadi.

YUrtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Saylovlar jarayonida har qaysi davlat, har qaysi jamiyatda xilma-xil fikrlar, odamlarning hohish-irodasi, orzu-umidlari, ijtimoiy kayfiyatlar, ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. SHu bilan birga, har qanday siyosiy xarakatlar va kuchlar saylovga tayyorgarlik ko'rish, o'z platformalarini aniq belgilab olishi- bularning barchasi tabiiy hol. Busiz o'zi hayot taraqqiyot bo'lmaydi".¹

O'zbekiston Respublikasida davlat xokimiyatini shakllantirish, davlat organlari, mansabdor shaxslar faoliyati ustidan xaqqoniy nazoratni o'rnatishda saylovlarning ahamiyati beqiyosdir. O'zbekiston xalqi saylovlar orqali tom ma'noda davlat hokimiyati egasi ekanligini namoyish etadi. Davlat xokimiyatini erkin va oshkora, muqobillik asosida tashkil etiladigan saylovlar orqali shakllantirish demokratiyaning oliy ko'rinishidir. Saylovlar orqali inson va fuqaroning eng muhim Konstitutsiyaviy huquqlaridan biri ro'yobga chiqariladi.

Saylov jarayonida, fuqarolarning bevosita o'zlari erkin saylaydigan vakillari orqali mamlakatni boshqarishda qatnashish xuquqining amalga oshirilishi uchun yaratilgan imkoniyatga qarab, u yoki bu davlat qay darajada demokratik tamoyillar asosida yashayotganligiga baho berish mumkin.

Demokratiyaning ushbu eng muhim tamoyilini hayotga tatbiq etish, fuqarolarning saylov huquqini, o'z hohish-irodasini erkin ifodalash, o'z qonuniy

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T: "O'zbekiston", 1999 y. 310 bet

manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, huquqiy asos yaratib berilishi lozim.

Mustaqillik yillari mobaynida O'zbekistonda ham yangi saylov qonunchiligi tizimi shakllandi. Bu boradagi dastlabki qadam 1991 yilning 18 noyabrida qo'yildi. Aynan shu kuni parlamentimiz "O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov to'g'risida"gi Qonunni qabul qilib, MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib ko'ppartiyaviylik asosida saylov o'tkazishga huquqiy zamin yaratdi. 1991 yilning 29 dekabrda mamlakatdagi siyosiy partiyalar ishtirokida, muqobillik asosida prezidentlik uchun ilk bor umumxalq saylovi o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (1992 yil 8 dekabr) qabul qilinishi butun qonunchilik rivojiga shu jamladan, saylov qonunchiligi takomillashuviga hayotbaxsh turtki berdi. Unda saylov tizimiga bag'ishlangan mahsus bob mustahkamlandi. Fuqarolarning saylash va saylanish huquqi, o'z hohish –irodasini tenglik va erkinlik asosida bildirish imkoniyati, shuningdek saylov o'tkazishning umumiy demokratik tamoyillari asosiy qonun darajasida o'z tasdig'ini topdi.

Konstitutsiya saylov qonunchiligini tubdan demokratik iloh qilishning huquqiy zamini sifatida maydonga chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi saylov qonunchiligi, saylov jarayonini tartibga soluvchi qator normativ-huquqiy xujjatlar tahlil etiladi. 2007 yilning 23 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi kuni belgilanganligi bois, asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonunchilikning qaror topishi va takomillashuviga qaratiladi.

Mavzuning ilmiy o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda saylov tizimi va uning huquqiy asoslari to'g'risida mustaqillik yillarida ko'plab ilmiy maqolalar, risolalar va monografiyalar chop qilingan. Ularda respublikamizda demokratik saylov tizimining shakllanganligi, saylov qonunchiligining rivojlanishi, saylovlarning o'tkazish tartib-qoidalari o'z aksini topgan. Bu adabiyotlar quyidagilar:

O.Turg'unov, I.Bekov¹, H.Odilqoriev, N.Azizov², D.Ahmedov, A.Xoshimxonov³, A.Raxmonov, I.Nasriev, O'.Mavlonov⁴, G'ulom Mirzo, S.Hidirov⁵, A.Latifov⁶, M.Abdusalomov⁷, I.Nasriev, SH.Fahritdinov, A.Rahmonov⁸, J.Abdusattorov⁹ va boshqalarning ishlaridir.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va muhim manbasi. Ishni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Mavzuga oid ilmiy maqolalar, risolalar va monografiyalar, ommaviy axborot vositalari hamda internet materiallari muhim manba bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Ishda mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik saylov tizimining shakllanishi va uning huquqiy asoslarini atroflicha tahlil qilish va umumlashtirish asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiquvchi vazifalar quyidagilar:

- O'zbekistonda saylov tizimining huquqiy asoslarini keng yoritib berish;
- Respublikamizda demokratik saylov tizimining shakllanishini aniq ma'lumotlar asosida tahlil qilish va umumlashtirish;
- Saylovlarda siyosiy partiyalar va xarakatlarning ishtirokini ko'rsatish;
- Saylovlarda ommaviy axborot vositalarining rolini yoritish.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Ishning materiallaridan umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, hamda Oliy o'quv yurtlari o'quvchi va talabalari O'zbekiston tarixi, Siyosatshunoslik, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Xuquqshunoslik,

¹ .Turg'unov O, Bekov I "Fuqarolar saylov xuquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga sharhlar. T. "O'zbekiston" 2007 y

² .Odilqoriev H, Azizov N O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi qonunchiligining rivojlanishi. T."Adolat", 2007 y

³ .Ahmedov D, Hoshimxonov A. O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi va jarayoni. T."O'zbekiston" 2007y

⁴ . Raxmonov A.Nasriev I, Mavlanov O'. Jamiyatni demokratlashtirishning muhim yo'nalishi. T "Ma'naviyat" 2011y.

⁵ .G'ulom Mirzo, Xidirov S. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi va ommaviy axborot vositalari.

T."O'zbekiston" 2007y

⁶ . Latifov A. Saylovlarda siyosiy partiyalar va xarakatlar faolligi. Xuquq va burch. 2009y. 10 son

⁷ .Abdusalomov M. Saylov-demokratiya ko'zgusi. Huquq va burch. 2009 y. 1 son

⁸ .Nasriev I. Faxrutdinov SH, Raxmonov A. Demokratik saylov tizimi va uning huquqiy asoslari. T. "Ma'naviyat" 2011 y

⁹ Abdusattorov J. YAngi parlament saylovlarida siyosiy partiyalarning roli. Demokratlashtirish va inson xuquqlari. T. 2004 y 4-son

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kabi fanlarni va boshqa Ijtimoiy-Gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ish-Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning xajmi 68 sahifani tashkil qiladi.

I - Bob. O'zbekistonda demokratik saylovlar tizimi

1.1 Saylov tizimining huquqiy asoslari

Istiqlol yillarida O'zbekistonda xalqaro huquq andozalari va talablariga, xorijdagi ilg'or tajriba va milliy-tarixiy an'alarimizga hamda Konstitutsiyamizga mos saylov qonunchilik tizimi yaratildi. Milliy saylov qonunchilik tizimi yaratildi. Milliy saylov qonunchiligi tizimining yaratilishi va rivojlanishini quyidagi uch asosiy bosqichiga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqich (1991-1995 yy)- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda bir palatali Oliy Majlisni ko'ppartiyaviylik asosida shakllantirish bilan bog'liq davrni o'z ichiga oladi.

Bu davrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi (1991 yil 18 noyabr), O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil 8 dekabr), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida"¹gi (1993 yil 28 dekabr), "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi (1994 yil 5 may), "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (1994 yil 5 may) qonunlarning qabul qilinishi bilan umume'tirof etilgan printsiplarga mos ko'ppartiyaviylikka asoslangan, muqobil saylovlarni tashkil etishning huquqiy bazasi yaratildi. Jumladan, 1994 yil 5 mayda muhim hujjat- "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan fuqarolarga saylov huquqlarini amalga oshirish va ularning o'z hohish-istaklarini erkin ifodalash mexanizmi joriy etildi.

Ikkinchi bosqich (1995-2000yy)- birinchi bosqich davrida milliy saylov qonunchiligi asosida o'tkazilgan parlament saylovlarida to'plangan amaliy tajribaga muvofiq, saylov tizimining demokratik asoslarini mustahkamlash va qonunlarga tegishli o'zgartishlar kiritish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun// O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1994. №10. 250 modda

Saylov jarayonining muhim sub'ektlari sanalgan siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonuni 1996 yilning dekabrda qabul qilindi.¹

Uchinchi bosqich (2000-2010 yy)- mamlakatimizda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'lib, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishda muhim rol o'ynadi.

Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek, "demokratiyaning eng muhim printsiplari-odamlarning saylov huquqini o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berishi lozim"². Darhaqiqat, mustaqillik yillarida saylovlarning huquqiy asosini belgilab beruvchi qonuniy asoslar yaratildi..

O'zbekistonda saylov huquqining asosiy manbai Konstitutsiyadir. Boshqa qonun hujjatlari esa, shu konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib qabul qilinadi.

O'zbekistonda har bir fuqaro siyosiy huquqini saylov orqali amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'zlari saylab qo'ygan vakillari, Prezident, vakillik organi bo'lmish oliy qonun chiqaruvchi organ-Oliy Majlis, halq deputatlari tegishli Kengashlari orqali davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Prezidentlikka saylash va saylanish huquqiga ega. Qonuning 2-moddasida "O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashish huquqiga ega".

Demokratik davlatlarda umume'tirof etilgan tamoyillar asosida shakllangan va amalda bo'lgan saylov o'tkazishning demokratik printsiplari mazmun-mohiyatini qo'yidagi tartibda sanash mumkin:

- 1) konstitutsiyaviy davlat tuzilishiga mos bo'lgan saylov tizimi va saylov huquqining zamonaviyligi tamoyili;

¹ O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonun// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997, №2, 36 modda

² I.A.Karimov . Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. T: "O'zbekiston", 1999. 380 bet

- 2) saylovni tashkil etish va uni o'tkazishda qonun ustuvorligiga erishish tamoyili;
- 3) saylovning xalqchilligi tamoyili;
- 4) saylovning tejamkorligiga erishish tamoyili;
- 5) saylovda barqarorlik, haqqoniylik, yuksak ma'naviyat va inson huquqlarining hurmat qilinishi tamoyili;
- 6) saylovning uyushqoqligiga erishish tamoyili va boshqalar

Darhaqiqat, O'zbekistonda saylov huquqining asosiy printsiplari, avvalo Konstitutsiyada va unga muvofiq tarzda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonunda aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ixtiyoriylik
- yashirin ovoz berish huquqi
- to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) saylash huquqi

Ixtiyoriylik tamoyili, fuqarolarga o'z saylov huquqini hech bir qarshiliksiz amalga oshirish imkoniyatini ta'minlashga, ularning o'zini namoyon etish, yig'inlar va jamoat birlashmalarida qatnashish erkinligi kabi huquqlari butun saylov jarayoni davomida rioya etilishiga ishonchni ta'minlashga qaratilgan. Saylovlarda qatnashmaganlik uchun javobgarlik belgilanmaydi. Bu esa boshqa davlatlardan farq qiluvchi xususiyatlarimizdan biridir. Erkin saylov huquqining amalga oshirilishi fuqarolar ijtimoiy faolligining oshib borishiga xizmat qiladi. Bunday jamiyatda fuqarolar davlat tomonidan turli sohalarda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarga befarq bo'lmaydilar.¹

O'zbekistonda saylovlar **yashirin ovoz berish** yo'li bilan o'tkaziladi. Saylovchilarning saylovlarda yashirin ovoz berishlari demokratiyani amalga oshirish shakllaridan biridir. Konstitutsiya va qonunlar ham fuqarolarning o'z xohish-irodasini erkin bildirishlari ustidan nazorat qilinishini man etadi.

¹ Axmedov D. Hoshimhonov A. O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi va jarayoni. T. "O'zbekiston", 2007y. 10-11 betlar

Bevosita, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi tamoyili Konstitutsiya va saylov haqidagi qonunlarimizda aniq belgilab qo'yilgan. Mazkur printsipting asosiy va birdan – bir sharti har bir saylovchi shaxsan ovoz berishdan iboratdir.

To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi saylangan shaxslarning saylovchilar bilan mustahkam aloqada bo'lishlari, davlat ahamiyatiga molik muhim masalalarni hal etishda muntazam ravishda o'zaro muloqot qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratadi.

Yuqoridagilardan tashqari, O'zbekiston saylov qonunchiligida xalqaro normalarga mos ravishda saylov huquqining asosiy konstitutsiyaviy printsiplari bilan bir qatorda quyidagi umumiy printsiplari ham o'z ifodasini topgan:

- 1) oshkoralik;
- 2) adolatlilik
- 3) umumiylik
- 4) tenglik

Oshkoralik tamoyili saylovlar oshkoralik tamoyillariga asoslangan qonunlarga muvofiq o'tkazilishini ko'zda tutadi. Oshkoralik saylov jarayonida qonunga xilof xarakatlarga chek qo'yadi.

Adolatlilik tamoyili. Saylov jarayoni barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlar hamda saylovchilarning barcha nomzodlar va ularning dasturlari xususidagi axborotga ega bo'lishlarini ta'minlash lozim. Ma'lumki, hozirgi saylov qonunchiligimizga binoan siyosiy partiyalar va bevosita fuqarolar Prezidentlikka nomzodlar ko'rstaish huquqiga egadirlar. Qonunlarda Prezidentlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar ham hamma saylanuvchilar uchun teng asoslarda belgilangan.

Umumiy saylov huquqi printsipti shundan iboratki, O'zbekistonning 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolari saylash huquqiga egadirlar, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarda saqlanayotgan shaxslar bundan mustasnodir.

Har bir saylovchi bir ovozga egadir. O'zbekiston Respublikasining 35 yoshdan kichik bo'lmagan fuqarolari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylanish huquqiga egadirlar. O'zbekiston Respublikasining saylov kunigacha 21 yoshga

to'lgan fuqarolari hokimiyatning mahalliy vakillik organlariga saylanish huquqiga egadirlar.

1994 yil 5 mayda O'zbekistonda "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan.

Saylovchilar o'z xohish-irodalarini erkin bildirish va yashirin ovoz berish huquqiga egadirlar.

Saylovchilarga uchastka saylov komissiyasining binosida saylovchilar ro'yxati bilan oldindan tanishib chiqish imkoniyati ta'minlanadi.

Biror bir sababga ko'ra saylovchilar ro'yxatiga vaqtida kirmay qolgan saylovchi uning shaxsi, fuqaroligi va turar joyini tasdiqlovchi hujjatga asosan uchastka saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga kiritiladi.

Saylovchilar Prezidentlik lavozimiga ko'rsatilgan nomzodlarni yoqlab yoki ularga qarshi tashviqot yuritish huquqiga egadirlar.

Saylovchilar saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar va nomzodlarning kelgusi faoliyat dasturi bilan tanishish huquqiga egadirlar.

YUrtimizda bo'lib o'tgan parlament saylovlari shuni ko'rsatadiki, xozir bizda ana shunday qatlam shakllanmoqda. YA'ni saylovchilar endilikda duch kelgan odamga emas, balki o'zi dastur va g'oyalarini yoqtirgan, kelajagi bor deb hisoblaydigan partiyaga ovoz bermoqda.¹

Saylanish huquqi nomzod bo'lmish shaxsning saylovchilar tomonidan e'tirof etiladigan kerakli kasbiy va ahloqiy fazilatlar bilan bog'liq bo'lib, unga xokimiyat vakillik organlari va fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruvida faoliyat olib borish imkoniyatini yaratadi.²

O'zbekiston Respublikasining saylov qonunchiligi, Prezident saylovi to'g'risidagi qonunchilik qisqa davrda muayyan taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy ma'naviy yuksalib borishi saylov qonunchiligining takomillashuviga asos bo'lib xizmat qildi.³

¹ Karimov I.A. Parlament-jamiyat hayotining ko'zgusi// O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. Toshkent, "O'zbekiston", 2005y 163b

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. YUridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik

³ Odilqoriev H, Azizov N O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi qonunchiligining rivojlanishi. T."Adolat", 2007y. 15 bet

2009 yil 27 dekabrda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi va 2010 yil 10 yanvar kungi takroriy ovoz berish natijalariga ko'ra, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar xarakati-O'zbekiston Liberal demokratik partiyasidan 53 nafar, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 32 nafar, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 31 nafar, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan 19 nafar deputat saylandi. 15 nafar deputat O'zbekiston ekologik harakatining vakillaridir. 150 nafar saylangan deputatning orasida 33 nafari yoki 22 foizi xotin-qizlarni tashkil etadi.

Saylangan 150 nafar deputatdan 47 kishi yoki 31,3 foizi ilgari Qonunchilik palatasi deputatlari bo'lgan. Bu holat saylangan deputatlarning nafaqat o'z saylovchilarining ishonchiga sazovor bo'lganidan, qolaversa, parlament professional parlamentni shakllantirishda ularning hayotiy tajribasi va qonun ijodkorligi amaliy ko'nikmalaridan yanada samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Saylangan deputatlar orasida 34 nafari yoki 22,7 foizi huquqshunoslar, 37 nafari yoki 24,7 foizi iqtisodchilar. Umuman, quyi palata tarkibida jamiyatning deyarli barcha qatlam vakillari bor.¹

Saylov qonunchiligini yanada rivojlantirish ahamiyati haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi"da alohida to'xtalib, saylovlar- bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masala ekanini alohida ta'kidladi.

Saylovda ishtirok etadigan siyosiy partiyalarning ro'yxatdan o'tishi uchun o'rnatilgan muddat 6 oydan 4 oyga tushirildi. Siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishi uchun ruxsat berish masalalarini hal etish borasida zarur bo'ladigan

¹ Nasriev I, Fahrutdnov SH. Rahmonov A. Demokratik saylov tizimi va uning huquqiy asoslari. T. "Ma'naviyat" 2011y 27 bet

saylovchilar imzosining miqdori avvalgi 50 ming imzo o'rniga 40 ming qilib belgilandi.

Saylov qonunchiligida siyosiy partiyaning “vakolatli vakili” degan yangi institut kiritildi, unga imzo varaqalarining to'g'ri to'ldirilishini tekshirishda, saylov uchastkalarida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish huquqi berildi.

YUrtboshimiz Islom Karimov “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi”da O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish masalasiga alohida to'xtalib, saylov qonunchiligimizda “saylovoldi tashviqoti” tushunchasiga aniq ta'rif berish, bunday tashviqotni olib borishning shartlari, turlari, ruxsat etilgan shakl hamda usullarini qonunchilik yo'li bilan belgilab qo'yish zarurligini ta'kidlaydi.

Saylov to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha kontsepsiyada ilgari surilgan tashabbuslardan yana biri-bu xizmat safari, o'qish yoki boshqa turli sabablarga ko'ra, ovoz berish kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchilarning muddatidan oldin ovoz berish huquqini kafolatlash mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq. YUrtboshimizning tashabbusi bilan mazkur masalaning oliy qonunchilik organi tomonidan qonunchilikda aniq mustahkamlab, qo'yilishi fuqarolarning saylov huquqlari amalga oshirilishini, uchastka komissiyalari faoliyati oshkoraligini ta'minlash va saylov qonunchiligi buzilishi mumkin bo'lgan holatlarga yo'l qo'ymaslik masalalariga xizmat qilish shubhasidir.¹

Istiqlol yillarida jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy sohalari bosqichma-bosqich va izchil rivojlantirib borilganligi natijasida umume'tirof etilgan standartlar va yuksak demokratik talablarga har tomonlama javob beradigan saylov tizimi shakllandi.

Samarali demokratik saylov tizimining shakllantirilganligi saylovlarni ko'p partiyaviylik asosida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, saylov qonunchiligi

¹ Raxmonov A, Nasriev I, Mavlonov U. Jamiyatni demokratlashtirishning muhim yo'nalishi. T. “Ma'naviyat”, 2011y 19-20 betlar

talablari hamda xalqaro me'yorlarga amal qilgan holda, ochiqlik va oshkorolik sharoitida yashirin ovoz berish orqali umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylash huquqi printsiplariga to'la muvofiq tarzda o'tkazish imkoniyatini bermoqda.

Ushbu o'rinda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamitini rivojlantirish kontseptsiyasi isloh etish hamda demokratlashtirish jarayonining, davlat va jamiyat qurilishi sohasini, huquqiy tizimni, shu jumladan, saylov qonunchiligini yanada takomillashtirishning yangi bosqichini boshlab berganini alohida qayd etish kerak. Zero, Kontsepsiya asosida qabul qilingan "Saylov erkinligi yanada ta'minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shaxar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish xaqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni fuqarolarning saylov huquqlari erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish borasidagi muhim qadam bo'ldi.

Mazkur Qonun bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga mamlakatimizda saylov erkinligi huquqi printsiplarining to'liq joriy etilishi va saylov tizimining yanada demokratlashuviga xizmat qiladigan qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.¹

Qonunchilikka kiritilgan yana bir o'zgartirish va qo'shimcha saylovoldi tashviqotini olib borishning turlari, shakllari va usullarining aniq belgilab qo'yilishi bilan bog'liq.

Saylovoldi tashviqotining olib borishning shakllari sifatida omma oldida munozaralar, bahslar, matbuot konferentsiyalari, intervyular, so'zga chiqishlar, saylovchilarning yig'ilishlari, deputatlikka nomzod, siyosiy partiya to'g'risidagi rolklarni joylashtirish nazarda tutildi.

Qonunchilikka kiritilgan yana bir qo'shimcha va o'zgartirish muddatidan oldin ovoz berishning muddatlari, tartibi va tartib-taomillarining belgilab qo'yilishidir.

¹ Abdullaev J, Husanova M. Saylov huquqi erkinligining kafolati. Xalq so'zi. 2013 y. 23 yanvar

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bevosita saylov kunlaridan oldin jamoatchilik fikri so'rovlari, saylov natijalari taxminlarini, o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni chop etishni taqiqlash bilan bog'liq amaliyot Frantsiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Meksika va boshqa davlatlarning qonunchiligida mustahkamlangan.

Mazkur normaning milliy saylov qonunchiligiga ham kiritilishi eng avvalo, saylovchilarning huquqlarini yanada yaxshiroq himoya qilishga, u yoki bu nomzodga nisbatan noxolis, yanglish, noto'g'ri munosabatni hamda saylovga oid qonun hujjatlarining buzilishi ehtimolini istisno etishga imkon beradi.¹

2012 yil 19 dekabrda prezidentimiz Kontseptsiyaga muvofiq ishlab chiqilgan "Saylov erkinligi yanada ta'minlash va saylov qonunchiligini yanada rivojlantirilishi munosabati bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi saylov to'g'risida"gi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish xaqida"gi qonun qabul qilindi.

Ushbu qonunning mazmun-mohiyati xaqida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi raisi Mirzoulug'bek Abdusalomov quyidagi fikrni bildirdi: - Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, saylovlar- bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'lik demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik xuquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z hohish irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir,-deydi M.Abdusalomov. SHu bois mamlakatimizda samarali, demokratik saylov tizimini rivojlantirishga qaratilgan chuqur o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

YAngi qonunning o'ziga xos jihatlari, ahamiyati xaqida- Qonunning asosiy maqsadi saylovning oshkoraligi va ochiq-oydinligi printsiplarini mustahkamlashga qaratilgan.

¹ Abdullaev J. Xusanova M. Saylov huquqi erkinligining kafolati. Xalq so'zi. 2013y. 23 yanvar

Yana bir e'tiborli jihat- endilikda kuzatuvchilarga O'zbekiston Ekologik xarakatining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash bo'yicha konferentsiyada ishtirok etish xuquqi berildi. Ushbu xuquqiy mexanizm parlament quyi palatasi deputatlari saylovining oshkoraligi va ochiq-oydinligini ta'minlaydi.

Aybdorlik masalasi sudda hal etilmagan yoki turli sabablar bilan ehtiyot chorasi sifatida qamoqda vaqtincha ushlab turilgan shaxslar ham saylash huquqiga ega. Ularning ushbu huquqini ro'yobga chiqarish maqsadida qonunga qamoqda saqlash joylarida ham saylov uchastkalari tashkil etilishi to'g'risida norma kiritildi. Bu qo'shimcha mamlakatimizda inson huquqlari ustuvorligi printsipiga amal qilishning yana bir yorqin namunasidir.¹

Yangi qonunning qaysi jihatlari saylov jarayonida ochiq-oydinlik va holislikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, saylovning natijasida saylovoldi tashviqoti muhim o'rin tutadi. Saylovoldi tashviqati to'laqonli o'tkazilsa, saylovchi o'z nuqtai nazarini belgilashga qiynalmaydi.

Qonunda mustahkamlab qo'yilganidek, saylovoldi tashviqoti- saylov kompaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni deputatlikka nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyatdir.

Tashviqotdan maqsad-nomzodga ovoz berishga da'vat etish. Bunda siyosiy partiyaning dasturi yoki saylovoldi platformasi, deputatlikka nomzod to'g'risidagi axborot tarqatiladi. Omma oldida munozaralar, bahslar, matbuot konferentsiyalari, intervyular, so'zga chiqishlar, saylovchilarning yig'lishlari o'tkaziladi. Saylov jarayonlarida siyosiy partiya, deputatlikka nomzod to'g'risidagi roliklardan foydalaniladi.

Saylovoldi tashviqotini ommaviy axborot vositalari orqali olib borish ham qonun bilan alohida tartibga solinadi. Bu borada davlat tomonidan deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarga hajmiga ko'ra bir xil bo'lgan efir vaqti va nashr maydonini bepul berish yo'li bilan teng sharoitlar ta'minlanadi.

¹ Abdusalomov M. Saylov jarayoni demokratlashuvning muhim kafolatlari. O'zbekiston ovozi. 2013 yil, 29 dekabr

Saylovoldi tashviqoti saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish, bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini chiqarish hamda tarqatish orqali ham olib borilishi mumkin. Bu jarayonlarda ham saylov ishtirokchilariga teng sharoitlar yaratiladi.

YAngi qonunga ko'ra, saylov kuni va ovoz berish boshlanishiga bir kun qolganda saylovoldi tashviqotiga yo'l qo'yilmaydi. Binolarga, inshootlarga va boshqa joylarga ilgari joylashtirilgan saylovoldi tashviqoti materiallari saylovga bir kun qolganda mahalliy davlat xokimiyati organlari tomonidan olib qo'yiladi.

Taraqqiy etgan davlatlar qonunchiligida mavjud bunday normaning qonunchiligimizga kiritilishi saylovchilarga o'z qarashlarini, siyosiy hayrixoxligini aniqlab olish, kim va qanday siyosiy dastur uchun ovoz berish masalasida aniq bir qarorga kelishi uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi. SHuningdek, bu ovoz berish kuni arafasida turli suiiste'mollik xolatlari va qonun buzilishlarining oldini oladi.

Qaysi hollarda muddatidan oldin ovoz beriladi va bu jarayon qanday amalga oshiriladi? – Saylov kuni ayrim fuqarolar xizmat safari, ta'til yoki boshqa yumushlar sababli o'z yashash joyida bo'lmasligi mumkin. Bunday holatlarda ularga muddatidan oldin ovoz berish uchun shart-sharoit yaratilishi saylov xuquqi kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Qonun asosida muddatidan oldin ovoz berish o'tkazilishi vaqti va tartib-taomillari aniqlashtirilgani ana shu maqsadga xizmat qiladi. Endi muddatidan oldin ovoz berish saylovga o'n kun qolganda boshlanadi va saylovga bir kun qolganda tugallanadi. Uni o'tkazish vaqti okrug saylov komissiyasi tomonidan belgilanib, saylovchilar, kuzatuvchilar va ommaviy ahborot vositalari vakillarining e'tiboriga etkazildi.

Buning uchun saylovchi o'z yashash joyida bo'la olmasligi sabablari ko'rsatilgan ariza asosida uchastka saylov komissiyasidan saylov varaqasini oladi.

YAngi qonun Markaziy saylov komissiyasi zimmasiga qanday vazifalar yuklaydi? Bu borada qanday ishlar amalga oshiriladi? Har bir qonun ijrosi undan aholining xabardorlik darajasiga bog'liq. SHu bois Komissiyamiz siyosiy partiyalar, O'zbekiston Ekologiya xarakati, adliya organlari va fuqarolik jamiyati institutlari

bilan hamkorlikda joylarda ushbu qonunning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilik e'tiboriga etkazishga qaratilgan tadbirlar o'tkazishni maqsad qilgan.

Bir so'z bilan aytganda, saylov qonunchiligiga kiritilgan yangi normalar saylov kampaniyasi mobaynida siyosiy partiyalarga va deputatlikka nomzodlarga teng shart-sharoitlar yaratish mexanizmlarini rivojlantirish bilan bir qatorda fuqarolarga o'z saylov huquqlarini erkin amalga oshirishlari uchun huquqiy kafolatlar ta'minlanishi yanada mustahkamlandi. Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonida oshkoralik va ochiqlik printsiplarining yanada mustahkamlangani mamlakatimizda saylov huquqi erkinligi printsiptining to'liq joriy etilishi va saylov jarayonining yanada demokratlashuviga xizmat qiladi.¹

¹ Abdusalomov M. Saylov jarayoni demokratlashuvining muhim kafolatlari. O'zbekiston ovozi. 2013 y 29 dekabr

1.2. Demokratik saylov tizimi.

Insoniyatning necha ming yillik tajribasi davomida demokratiyaning ikki shakli vujudga kelgan; to'g'ridan-to'g'ri, bevosita demokratiya hamda vakillik demokratiyasi-avvalambor, vakillik va boshqa saylab qo'yiladigan organlar orqali amalga oshiriladigan demokratiya, ya'ni saylov demokratiyasi. Demokratiyaning mazkur shakllarini bir-biriga qarshi qo'ymaslik lozim, chunki ularning ikkalasi ham o'ziga xos ahamiyatga ega va uzviy bog'liqdir.

To'g'ridan –to'g'ri demokratiya-insonning davlat ishlarini hal qilishda yashirin ovoz berish orqali yoki boshqa shaklda bevosita ishtirok etishidan iborat.

Demokratiya sharoitida xukumat xokimiyat boshqaruvini xalq roziligi bilan oladi va mabodo xalq xukumatga ishonchini yo'qotsa, uni tinch, demokratik yo'l bilan almashtira oladi.

Konstitutsiyamizning 12-moddasida esa “O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas”,¹ deb mustahkamlab qo'yilishi ham davlatimizning demokratik mohiyatidan kelib chiqadi.

Prezidentimiz Islom Karimov bunday hayotning afzalliklari xaqida to'xtalib, bunday degan edi: “Modomiki, biz demokratik jamiyat qurmoqchi ekanmiz, jamiyatimizda, albatta ko'ppartiyaviylik tizimi bo'lishi kerak. Bu tizim nima uchun zarur, degan savolga men shunday javob bergan bo'lardim. Ko'ppartiyaviylik, avvalo, jamiyatimizda o'z manfaat va qarashlariga ega bo'lgan har qaysi ijtimoiy qatlam va guruhning maqsad va intilishlarini to'liq aks ettirish uchun kerak”²

Xozirgi vaqtda O'zbekistonda rasman ro'yxatdan o'tkazilgan to'rtta partiya mavjud. Bular: O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, “Adolat”-sotsial-demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi hamda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyalari. Ushbu siyosiy

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. “O'zbekiston”. 2012 y 5 bet

² I.Karimov Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T, “O'zbekiston”, 2005y. 12-b

partiyalarning huquqiy maqomi “Siyosiy partiyalar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan qonuni bilan belgilanadi.¹

Xulosa qilib aytganda, huquqiy demokratik davlatning muhim tamoyillaridan biri sanalgan, O’zbekiston Respublikasida belgilangan siyosiy huquqlar negizini tashkil etuvchi fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita va bilvosita ishtirok etish xuquqlarining kafolatlari eng avvalo, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan “xalq davlat xokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan tamoyilni amalga oshirish maqsadini ko’zlaydi.²

O’zbekiston Respublikasi saylov tizimining huquqiy asoslari O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va saylovga oid qonun hujjatlarda belgilangan bo’lib, ularning eng muhim xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- saylov jarayonlarining demokratik tamoyillar asosida adolatli, xolisona, ochiq va oshkora o’tkazilishiga xizmat qiladi;

- saylov jarayonlarining faol ishtirokchisi hisoblangan har bir fuqaroning xuquqlari, erkinliklari va manfaatlarini kafolatlaydi;

- saylov jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining, siyosiy partiyalarning dasturini maqsad va vazifalarini amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan xuquqiy mexanizmlarni mustahkamlaydi.

Mustaqillikning tarixiy qisqa muddatlarida demokratik mamlakatlarga xos bo’lgan ko’ppartiyaviylik tizimi va shu bilan bir vaqtda demokratik saylov tizimi shakllandi. Xokimiyatning turli darajalarini shakllantirish uchun demokratik saylov o’tkazish va ularda ko’ppartiyaviylik asosida nomzodlar ko’rsatish, buning uchun saylov kompaniyalari o’tkazish fuqarolar siyosiy madaniyatiga singib bormoqda.

Demokratik jamiyat qurishning talablaridan biri – ko’ppartiyaviylik asosida demokratik saylovlar o’tkazishdir. Saylovlar jamiyatning demokratik qiyofasini ko’rsatish bilan birga, o’sha xalqning xuquqiy ong–tafakkurini namoyon etadigan muhim siyosiy voqeadir. Sababi, jamiyatda boshqa xech bir jarayon yo’qki, unda xar bir fuqaro ishtirok etsa. Saylash yoki saylanish oddiy hol emas. Bu imkoniyatlar

¹ O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997 yil 2-son 36-modda

² O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. “O’zbekiston”, 2012 y 40 b

zamidida mustaqil Vatanimiz taqdiri, uning porloq kelajagi turganligini his etish har birimizning kelajakka nechog'lik mas'ul ekanimizni anglatadi.

Mustaqilligimizdan so'ng bo'lib o'tgan saylovlar xalqimiz ongida katta o'zgarishlar yasadi, unga munosabatni o'zgartirdi. Qolaversa, bu jarayonda ozmi-ko'pmi tajriba to'plandi. SHu yilning dekabr oyida mamlakatimizda ikki palatali parlamentga bo'lib o'tadigan saylovlar barcha partiyalar uchun chinakam sinovdir. Saylov bu yaxshi qonunlarni yaratabiladigan deputatlarni saylash imkoniyatidir.

Fuqarolik jamiyati va xuquqiy davlat sharoitida saylovlar faqat demokratiyaning belgisi va ko'rinishi bo'lmasdan, shu bilan birga uning zaruriy sharti hamdir. BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Inson xuquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi"ning 21 –moddasidan quyidagi demokratik tamoyil o'ringan: "Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o'z mamlakati boshqaruv ishida qatnashish xuquqiga egadir. Xalq irodasi xukumatning hokimiyati asosi bo'lishi kerak: bu iroda yopiq ovoz berish yoki ovoz berishni erkinligini ta'minlovchi boshqa shunga teng ahamiyatli ko'rinishlardagi umumiy va teng saylov xuquqi asosida ifodalanishi kerak".¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov erkin saylovlar, ularning demokratik jamiyat barpo etishdagi tutgan o'rniga alohida to'xtalib, "Modomiki, biz demokratik xuquqiy davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish kabi ezgu maqsad sari intilayotgan ekanmiz, demokratiyaning bosh talabi bo'lmish erkin saylovlarni munosib tashkil qilish biz uchun ham qarz, ham farzdir"¹ degan edi.

Saylovlar "demokratiyaning bosh talabi" deb atalishi bejiz emas. CHunki zamonaviy demokratik davlatlarda saylovlar xalq suverenitetini amalga oshirishning asosiy mexanizmi bo'lib, demokratiyaning "o'zagi"ni tashkil qiladi. Saylovlar xalqqa davlat xokimiyati manbai sifatidagi siyosiy rolini ijro etish imkonini beruvchi muhim siyosiy jarayon xisoblanadi. SHuningdek, saylovlar davlat xokimiyati institutlariga turli qatlamlar, guruhlarining manfaatlarini etkazish vositasi ham sanaladi.

¹ "Inson xuquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi". 1948 yil 10 dekabr.\\Inson xuquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. – T.Adolat.2004, 34 bet

¹ Karimov I. Vatan ozodligi –oliy saodat. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot–pirovard maqsadimiz.8 jild. – T: O'zbekiston. 2000, 62 bet

“Saylovning ahamiyati shundaki, – uning natijasida faqat vakillar, davlat boshlig'i saylanibgina qolmay, jamiyat a'zolarining xohish–irodasi, kayfiyati, olib borilayotgan siyosatga nisbatan munosabati aniqlanadi. Konstitutsiyaviy tarzda o'rnatilgan va taraqqiyotning muxim faktorlari hisoblanmish fikrlar xilma–xilligi yaqqol namoyon bo'ladi. Demokratik adolatli jamiyatni saylovlarsiz qurish mumkin emas».

Demokratik tamoyillarga asoslangan saylovlar tizimni shakllantirish, uni takomillashtirish o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan, mustaqillikka erishgan yosh davlatlarda fuqarolik jamiyati va xuquqiy davlat qurish uchun muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Saylov kelajagimiz, yurtimiz ravnaqi, jamiyatimizning gurkirab o'sish tarafdori bo'lgan fuqarolarning ishonchi, yorug' umidlari in'ikosidir. Saylov–demokratiyaning eng muhim va asosiy belgisi.

Saylovchi hushyor tursa, sergak bo'lsa, o'z qadrini anglasa, albatta, Parlamentimizdan kuchli, zabardast insonlar o'rin oladi. Oliy Majlisimiz tomonidan qabul qilinajak qonunlar esa etuklik mezon bilan boyiydi. Agar biz tushunchasi past, fikri to'mtoq, bir so'z bilan aytganda nomunosib, tasodifiy kishilarning Parlamentga o'tib qolishiga yo'l qo'ysak taraqqiyotga to'siq bo'lamiz. Bilimsiz, va'daboz, faqat xo'jalik nakazlarini bajaruvchi emas, balki oliy vakillik organining qonun yaratuvchi a'zosi bo'ladigan Insonlarning deputatlikka saylanishidan Ozod yurtimiz axli manfaatdordir. Va nihoyat, saylovchilar Oliy Majlisda qonunlar loyihasi muhokama qilinayotgani va qonunlar qabul etilayotganidan xabardor bo'lishlari, ularning ahamiyatini tushunib etishlari zaruratdir. Hayotimiz bilan bog'liq, yurtimiz rivoji uchun o'q ildiz bo'lajak xar qanday qonun qabul qilinayotganda o'zi ko'rsatgan nomzodning Parlament zalidagi faollik darajasi qanday, u bu jarayonda jonbozlik ko'rsatayaptimi, umuman olganda, o'z saylovchisining ishonchini oqlay olayaptimi, hammasi saylovchiga ayon bo'lishi kerak.

SHundagina saylovchi katta doirada fikrlay oladigan, o'z talqini, tahlili, xulosasiga ega, qolaversa, bilimi mukammal shaxsga ovoz berganiga amin bo'ladi. Gapning ochig'i, deputat degani senga ko'prik qurib beraman, uyingga gaz keltiraman, yo'lingni asfaltlab beraman, arig'ingni qazib, tomingga shifer yopib

beraman, bog'ingga suv keltiraman deb emas, Parlamentda qabul qilinayotgan qonunlarga barcha saylovchilarimning taqdirini o'rtaga qo'yib, mamlakatimning yorug' ertasi uchun teran munosabatda bo'laman desagina el-yurt ishonchini oqlay biladi. Bugun saylovlar mudroqlikni emas, faollikni, siyosiy etuklikni talab qilayapti.

Biz XXI asrning dastlabki o'n yilligida baxt –iqbolimiz, yorug' kunlarimiz sari yuz burish arafasidamiz. Siyosiy faolligimiz, o'z xuquqlarimizni nechog'li anglashimiz jamiyatdagi mavqeimizni belgilaydi. YUksak ongli kishilar yashaydigan jamiyat doimo o'sishda, taraqqiy etishda davom etadi. Gullab yashnayotgan jamiyat esa demokratik tamoyillar shakllanganidan darak beradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda xalqaro xuquq normalari va talablariga hamda milliy–tarixiy an'analarimizga mos saylov qonunchiligi tizimi yaratildi. Bo'lajak saylovlarda muhim dasturilamal vazifasini o'taydigan milliy saylov qonunchiligi erkin demokratik saylovlar o'tkazish bo'yicha xalqaro saylov andozalari majmuini tashkil etuvchi xalqaro xuquqning umume'tirof etilgan printsiplari va normalariga to'la mos keladi.

Ushbu masalani bugungi kun nuqtai nazardan baholab, Prezidentimiz I.A.Karimov “Xozirgi sharoitda siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, aholining ayniqsa saylov jarayonlarida xohish–irodasi va fikrini ifodalash, markazda va joylarda davlat hokimiyati organlarini shakllantirishning muhim ta'sir o'tkazuvchi vositaga aylanishi alohida ahamiyat kasb etadi”¹, deb ta'kidlaydi.

Saylov xuquqi butun dunyoda e'tirof etilgan eng muhim konstitutsiyaviy–siyosiy xuquqlardan biri bo'lib, fuqarolarga davlat hokimiyati organlariga o'z vakillarini yuborish imkoniyatini beradi. Fuqarolarning o'z saylov xuquqlarini hech to'sqinliksiz amalga oshirishlari ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokining eng muhim kafolatlaridan biridir. YUrtboshimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: “Saylovlar jarayonida har qaysi davlat, har qaysi jamiyatda xilma–xil fikrlar, odamlarning xohish–irodasi, orzu –umidlari, ijtimoiy kayfiyatlar, ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. SHu bilan birga, har qanday siyosiy xarakatlar va kuchlar saylovga tayyorgarlik

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T. «O'zbekiston» 2007 y 32 bet

ko'rishi, o'z platformalarini aniq belgilab olishi—bularning barchasi tabiiy hol. Busiz o'zi hayot, taraqqiyot bo'lmaydi»²

Umumxalq saylovlari orqali davlat boshlig'i va vakillik organlari deputatlarini saylash demokratik xuquqiy davlatning eng muhim belgisidir.

Fuqarolarimizning siyosiy xuquqlari va uni amalga oshirishning xuquqiy mexanizmi Konstitutsiya va joriy qonunchilikda mustahkamlangan. Fuqarolar saylov xuquqlarining kafolatlarini saylov qonunchiligiga singdirish va alohida qonun bilan tartibga solish maqsadida, 1994 yilning 5 mayida O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar saylov xuquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi maxsus qonuni qabul qilindi.¹ Mazkur qonun milliy saylov xuquqi qonunchiligi tizimida va fuqarolarning saylov xuquqlarini ta'minlashda printsipl ahamiyatga ega. Ushbu qonunda belgilangan normalarni hayotga tatbiq etgan holda fuqarolarimiz saylov xuquqlaridan foydalanib, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Saylov xuquqini amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad xalq hokimiyatini ta'minlashdan iborat. Hokimiyat xamma zamonlarda ham eng murakkab siyosiy masala bo'lib, turli ijtimoiy kuchlar o'rtasida muzokaralar va tortishuvlar, ayrim hollarda esa hatto qonli to'qnashuvlarga sabab bo'lib kelgan. SHu boisdan ham saylovlarni qonunga binoan o'z vaqtida adolatli va oshkora o'tkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

SHarq mamlakatlari xalqlarining siyosiy—xuquqiy dunyoqarashlarida hokimiyat masalasi ko'pincha adolat, ma'rifat, tinchlik tushunchalari bilan birga rivojlangan. Ma'rifatparvar shoh, adolatli ijtimoiy tuzum to'g'risidagi g'oyalarni, ta'limotlarni, tarixdan “Boburnoma”, Farobiy, Alisher Navoiy asarlarida, Amir Temur “tuzuklari”da, uchratamiz. O'rta asrlarda ozodlik, tenglik, erkinlik kabi g'oyalarni G'arbiy Evropa mutafakkirlari: Makiavelli, Monteske, Jan Jak Russo va ko'plab boshqa faylasuflar nigohidan chetda qolmagan. Ana shu ulug'vor g'oyalar asosida nihoyat 1948 yil 10 dekabrda Inson xuquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilindi.

² Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7 jild —T: “O'zbekiston” 1999. 310 bet

¹ O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar saylov xuquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. \ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. —T:1994. №5, 127—modda

Deklaratsiyada xalq irodasi erkin hokimiyatning asosini tashkil etish; bu erk vaqti bilan hokimiyatni tashkil etish uchun o'tkazilib turiladigan saylovlarda o'z ifodasini topishi kerakligi qoida sifatida qat'iy belgilab qo'yildi. Saylovlarni umumiy, teng to'g'ridan-to'g'ri va yashirin o'tkazilishi to'g'risidagi normalarning kiritilishi xam milliy demokratik davlatlarda saylov xuquqini shakllanishida asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Tarixan qisqa muddatda Respublikamizda qator saylovlar to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Zero, gap O'zbekiston Respublikasi saylov qonunlari to'g'risida borar ekan, biz shuni ta'kidlashimiz joiz-ki, ularning barchasi ana shu yuqorida eslab o'tilgan insonparvarlik va demokratik g'oyalar, tamoyillar asosida qabul qilingan. Bugun O'zbekistonda demokratik saylovlari o'tkazish uchun xuquqiy asos to'liq yaratilgan. Qonunlarimiz xalqaro xuquq qoidalariga mos va ularning talablariga to'la to'kis javob beradi.

Prezidentimiz islom Karimov ta'biri bilan aytganda yaxshi, mukammal qonunlarning qabul qilinishi hali masalalar to'liq xal bo'ldi yoki ularning o'zi shundoq amalga oshaveradi degan fikrni keltirib chiqarmasligi kerak. Zero, qonunlarni amalga oshirishda xalqning siyosiy –xuquqiy ongi, umumiy madaniyat darajasi kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

SHu boisdan ham bugungi kunda biz qonunlarimizni har bir fuqaroning ongiga etkazish borasida ko'p ishlashimiz kerak. Darvoqe, saylovlarda fuqarolarning ishtiroki masalasida huquqshunos va siyosatshunoslar o'rtasida turli fikrlar mavjud. Masalan, Rossiya mutaxassislari va saylov to'g'risidagi qonunlarda saylov faqat xuquq, burch emas degan fikr bor, boshqa bir qator mamlakatlar qonunlarida esa aksincha, bu burchdir degan qoidalar qabul qilingan. Bizning fikrimizcha, xuquq va burchni bir biridan ajratish mumkin emas. Saylov huquqi ham har qanday boshqa huquqlar qatorida fuqarolarning huquqlaridir. Bu xuquqlar Konstitutsiyada va qonunlarda o'z ifodasini topgan, shu bilan ayni bir zamonda ularning muqaddas burchlaridir. Qaysi bir mamlakatda xalqning siyosiy faolligi yuqori bo'lsa, fuqarolar loqaydlarcha tashqaridan tomashabin singari qarab, turmasdan bo'layotgan siyosiy hayotdagi jarayonlarda faol ishtirok etsa shu davlatlarda saylovlar oshkoraviy demokratik asosda o'tishi tabiiydir.

Eng asosiysi saylovlar to'g'risidagi hamda nomzodlar va partiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar to'g'ri, haqqoniy va xolis bo'lishi muhimdir. Saylov oldi tashviqotlarda ularning nomzodlarga bir xilda teng munosabatda bo'lishi oshkoralikni ta'minlashda yordam beradi.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, tom ma'nodagi adolatli saylov tizimi shakllandi, uning xuquqiy asosi yaratilib, bugungi kunda sifat jixatidan takomillashtirildi deyishga to'la asoslarimiz bor. Konstitutsiyamizning 23- bobi saylov tizimiga bag'ishlangan bo'lib, bu bobda fuqarolarning saylovda ishtirok etish huquqlarining asoslari kafolatlangan.

Joriy yilda parlamentimizga to'rtinchi bor saylovlar o'tkaziladi. Bunda saylovlarning qanday o'tishi ham muxim ahamiyat kasb etadi. Demokratiya tamoyillariga, xalqaro standartlarga mos saylov qonunchiligini yaratish xamda odil va samarali saylov tizimini xayotga tadbiq etish bu borada etarli tajribaga ega bo'lgan xorijiy davlatlardagi saylov jarayonlarini chuqur va batafsil taxlil qilishni taqozo qiladi. Xususan, saylov usullarining afzallik va kamchiliklarini o'rganish ijtimoiy-siyosiy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklarning oldini olishga imkon tug'diradi.

Saylovlar 300 yillik tarixga ega. Bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida saylovlar ikki – majoritar va proporsional usulda o'tkaziladi. Xozirgi vaqtda AQSH, Kanada, Avstraliya, Hindiston kabi davlatlarda qo'llanilayotgan majoritar tizim tarixdagi ilk saylov usulidir. Bunda ovoz berish yakunlarini aniqlashda ko'pchilik tamoyili asos qilib olingan. Lekin bunday saylovlar parlamentdagi oz sonli partiyalar ta'sirini yo'qqa chiqaradi. Sababi, -majoritar tizim o'zaro bog'liq, katta, nisbatan barqaror partiya bloklari bo'lishini talab etadi. Kam sonli partiyalar esa chetga chiqarib yuboriladi.

Bunday usulda davlatda allaqachon mustahkam o'rin egallagan ikki yirik siyosiy partiya xokimiyat tepasida galma-gal o'rin almashib turadi. Biri davlatni boshqarganda, ikkinchisi muxolifat sifatida faoliyat yuritadi. Majoritar tizimda siyosiy kuch saylovchilar hohishini o'z maqsadlari yo'lida boshqarish mumkin. Saylov okruglarining hokimiyat tepasidagi partiya manfaatlariga mos ravishda

“taqsimlanishi”, okruglar o’rtasidagi hududiy chegaralarni alohida yo’l bilan belgilash natijasida ikkala okrugda ham ma’lum bir partiya ovozni ko’proq to’plashi mumkin.

Bunday vaziyat proportsional saylov tizimida kuzatilmaydi. Bu usul jamiyatdagi turli siyosiy qarashlar, oqimlar va ularni ifoda etuvchi partiyalarning qonun chiqaruvchi organda teng o’rin berish tamoyiliga tayanadi. Proportsional saylov tizimi XIX asr oxirida SHveytsariyaning qator kantonlarida, keyinchalik Belgiyada va 1996 yildan Finlyadiyada qo’llana boshlandi. Bu usulga xozirgi vaqtda dunyoning 60 dan ortiq mamlakatida (asosan G’arbiy Evropada) amal qilinib, har bir davlatda o’ziga xos ko’rinishga ega. Mumtoz shakldagi proportsional saylov tizimida butun mamlakat yagona saylov okrugiga aylandi va parlamentning butun tarkibi saylanadi. Saylovchi bunday holda partiyalar, harakatlar, ittifoqlar tomonidan taklif etilgan nomzodlar ro’yxatidan birini tanlaydi.

Majoritar tizimidan farqli o’laroq, bunday tizim saylovchilarning garchi ular qo’llab- quvvatlagan nomzod okrug miqyosida ko’pchilik ovozini ololmagan bo’lsa-da, qonunchilik organida o’z tarafdorlariga ega bo’lish imkonini beradi. Lekin demokratik tamoyil va saylov xuquqining xalqaro normalariga amal qilishdagi afzalliklariga qaramay, proportsional tizimda xam qator bahsli jihatlar kuzatiladi. Deylik, proportsional usul biror-bir yirik partiya saylovchilarning kamida 50 foizidan ortiq ovozini to’plash xuquqini beradi. Bu, ayniqsa, xukumat parlament xoxishi bilan shakllanadigan (Germaniya, Ispaniya, SHvetsiya, Latviya) yoki parlament ishonchsizlik bildirishi natijasida xukumat tarqatib yuborilishi mumkin bo’lgan davlatlar (Frantsiya, Polsha, Rossiya) uchun muhim shart xisoblanadi. Ma’lumki, parlamentda mutloq ko’pchilikka ega bo’lgan ta’sirli partiyalarning bo’lmasligi tez-tez xukumat inqiroziga olib kelishi mumkin. Bunga Italiya yorqin misol. Mustahkam ittifoq (blok) shakllantirishga noqobil partiyalarning ko’pligi bu davlatda xukumatning 56 marta almashishiga olib keldi.

Tarix va tajriba shuni ko’rsatadiki, xukumat inqirozlari va navbatdan tashqari o’tkazilayotgan saylovlarning ko’pligi davlatda mustaqil va barqaror xukumatni shakllantirishga va uning samarali faoliyat olib borishiga to’sqinlik qiladi. Bu esa

tabiiy holda jamiyat barqarorligining buzilishiga olib kelishi mumkin. Ko'rib turganimizdek saylov amaliyotining yuqorida tilga olingan ikkala usulining xam o'ziga yarasha yutuq va kamchiliklari bor. So'ngi paytda ayrim davlatlarda saylovlar majoritar va proportsional usullarning afzal tomonlarini hisobga olgan xolda o'tkazilayotgani bejiz emas. Masalan, Germaniya parlamentining quyi palatasiga deputatlarning bir qismi majoritar, ikkinchi qismi proportsional usulda saylanadi.

Germaniyaga xos saylov tizimini so'ngi o'n yilda 26 davlat tanladi. (G'arbiy Evropa mamlakatlari bilan birga Yaponiya, Rossiya, Armaniston, Albaniya, Senegal shular jumlasidandir). Kuzatuvchilar bu davlatlarda iloji boricha aholi barcha qatlamlarining xokimiyat organlarida o'z ovozigaga ega bo'lishiga erishilayotganini e'tirof etmoqdalar. Rossiya Davlat Dumasiga ham deputatlarning bir qismi majoritar usulda, qolgan qismi saylov birlashmalari va bloklar ro'yxati bo'yicha proportsional taqsim asosida saylanadi. So'nggi paytlarda majoritar saylov tizimi qo'llanilayotgan davlatlarda ham proportsional usul alomatlarini paydo bo'layotganini kuzatish mumkin. Buyuk Britaniyada xokimiyatning xududiy qonunchilik organlariga (Shotlandiya va Olster parlamentlari, Uels Milliy Majlisi) deputatlar proportsional asosida saylanadi. Frantsiyada ham deportamentlar vakillik kengashlari, shuningdek, Parij shahar kengashiga partiyalar ro'yxati bo'yicha saylovlar o'tkaziladi. Ba'zi mamlakatlarda aralash saylov tizimi ko'p mandatli okruglardan kam mandatli okruglarga o'tish orqali amalga oshiriladi. Bunda saylovchilar e'tiboriga xavola qilingan 3-5 partiyadan faqat 2-3 tasi g'olib chiqishi mumkin. Bunday usul muayyan dasturni amalga oshirishda partiyalarning birdamligiga olib kelishi mumkin. Bugun nufuzi xalqaro tashkilotlarda (BMT) urfga aylangan saylov tizimining yana bir ko'rinishi "Konsensus" usuli hisoblanadi. U raqibni fosh etishdan ko'ra, ko'proq saylov platformasining barcha nomzodlar uchun eng maqbul yo'lini topishga qaratilgan. Gap shundaki, saylovchi bir emas, bir necha (yoki barcha) nomzod uchun ovoz beradi va shu asosda ular o'rnini belgilaydi. Masalan, 1-o'rin uchun 5 ball, 2-o'rin uchun 4 ball, xakoza ball beriladi xamda natijada umumiy ballar xisoblanib, eng ko'p ovoz olgan nomzod g'olib bo'ladi. Bunday tizim siyosiy sub'ektlarning xokimiyat uchun

kurashini tartibga solishi bilan partiyalarga xam, umuman butun saylov kampaniyasiga xam ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

YUqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, saylovning qay usulda o'tishi mamlakatning mavjud demokratiya darajasini belgilab beradi. SHubhasiz, saylovlar qay shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, juda mas'uliyatli jarayon. CHunki aynan shu jarayon xalqning xoxish- irodasini ifoda etadi. Fuqaro o'zining davlatni boshqarish xuquqini shu yo'l bilan amalga oshirar ekan, xokimiyat organlarining shakllanishiga faqat shu tarzda bevosita ta'sir ko'rsata oladi.

Ko'pgina davlatlar tajribasi saylovlarni aralash usulda o'tkazish, ayniqsa, rivojlanishning xal qiluvchi bosqichida bo'lgan davlatlar uchun qulay ekanidan dalolat beradi. CHunki aynan shu usul parlamentning asosiy vazifasi-qonunlar ishlab chiqarish, qonunchilik tizimini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni yaratib bera oladi.

Davlatimizda mustaqil saylovlarni o'tkazish boshqa qonunlar bilan xam tartibga solinadi. Xususan. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida» "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shaxar kengashlariga saylov to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Referendumi to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"-gi qonunlar shular jumlasiga kiradi.

Ma'lumki, jahon amaliyotida saylovlarni tashkil etishning to'rtta turi mavjud bo'lib, ayrim davlatlarda saylovlar xukumat tomonidan tashkil etiladi. Germaniyada esa ular ichki ishlar vazirligi tomonidan o'tkaziladi. Pokiston va Ruminiyada saylov sud organlari tomonidan tashkil etiladi. Aksariyat mamlakatlarda esa saylovni tashkil etish va o'tkazishda ko'ppartiyaviylik yondashuvi bo'lib, bunda manfaatdor siyosiy partiyalar o'z vakillarini saylov komissiyalariga tayinlaydilar. Boshqa bir mamlakatlarda esa saylov mustaqil saylov organi tomonidan o'tkaziladi. Rivojlangan demokratik davlatlar kabi O'zbekistonda xam saylovni o'tkazish Markaziy saylov komissiyasi zimmasida bo'lib, bu ana shu jarayonlarning oshkora o'tkazilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqilligining o'tgan davrida ko'ppartiyaviylikni tashkil etish va yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan,

mustaqil davlat taraqqiyotining birinchi bosqichi siyosiy partiyalar uchun shakllanish davri bo'lgan bo'lsa, ikkinchi bosqich ular uchun xar tomonlama rivojlanish davri bo'ldi, deya bemalol aytishimiz mumkin. Har ikkala bosqichda ham siyosiy partiyalar saylovlar jarayonida ishtirok etib, saylovdan saylovgacha bo'lgan davrda o'z tajribalarini orttirdilar, aholi bilan yaqindan muloqotga kirishib, tarafdorlari, jumladan, a'zolari sonini yanada ko'paytirishga erishdilar. Bu jarayonda, shubhasiz, siyosiy partiyalarning zamonaviy saylov texnologiyalarini qo'llash tajribasi ham ortib bormoqda.

Muqobil saylovlar jarayonida siyosiy partiyalarning ishtirokiga keladigan bo'lsak, respublikamizdagi eng so'ngi, ya'ni 2004 yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hamda mahalliy hokimiyat vakillik organlariga bo'lib o'tgan saylovlarni eslab o'tish o'rinli, deb hisoblayman. Ushbu saylovlarda mamlakatimizdagi mavjud beshta siyosiy partiya ham, fuqarolar tashabbuskor guruxlari ham o'z nomzodlari bilan ishtirok etdilar. Har bir okrugda uchtdan oltitagacha nomzodning ishtirok etganligi ham saylovlarning aynan demokratik tamoyillar asosida ochiq, oshkora va muqobillik asosida o'tganligini ko'rsatdi.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, endi partiyalar avvalgidek saylovoldi kampaniya davrida emas, balki bevosita saylovlar oralig'idagi davrda xam sog'lom kurash olib bormoqdalar. Buni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qonun loyixalari muxokamalaridagi bahs –munozaralar, shu jumladan, O'zbekiston Xalq-demokratik partiyasining parlament ko'pchiligini tashkil etuvchi O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasiga nisbatan muxolif pozitsiyani egallashi kabi ko'plab misollarda ko'rish mumkin.

Siyosiy partiyalar hayotida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning yangi bosqichini boshlab berishga asos bo'lgan “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi esa mazkur siyosiy institutlar faoliyatining yanada jonlanishiga turtki bo'ldi. Siyosiy partiyalar bugungi kunda davlat xokimiyatini qo'lga kiritish uchun kurashadigan chinakkam siyosiy kuchga aylanib ulgurdilar.

Bo'lajak saylov esa siyosiy partiyalar uchun juda muhim siyosiy imtihon vazifasini o'taydi. Saylov natijalariga ko'ra, qaysi partiyaning dasturi, maqsadi va vazifalari xalqchil ekanligi, halqimiz qaysi partiyaning ko'proq qo'llab quvvatlashi yaqqol ayon bo'ladi.

Saylovda ishtirok etib, etarlicha ovoz yig'a olmagan partiyalar uchun esa, kelgusi faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqib, o'zlari uchun yangi xulosalar qilish imkonini beradi.

Muqobillikka asoslangan saylovlarda siyosiy partiyalardan tashqari, bevosita fuqarolarning nomzod ko'rsatish imkoniyatining mavjudligi esa, saylovlarning demokratik tamoyillarga asoslanganligining yana bir dalilidir. Dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, siyosiy partiyalar xamisha xam saylovchilarning muayyan qismini siyosiy partiyalarga mansub bo'lmaganlar tashkil qiladi.

Bevosita fuqarolarga nomzod ko'rsatish xuquqining berilganligi –bu saylovlarning o'zbek milliy davlatchiligi asoslariga va an'alariga asoslanganligini, insonparvarlik va adolatlilik tamoyillariga sodiqligini, inson xuquq va erkinliklarining oliy qadriyat ekanligining kafolati sifatida ham namoyon bo'ladi.

Saylovlar erkin va adolatli, ochiq va oshkora o'tishida kuzatuvchilar institutining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Xalqaro hamjamiyatning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarga qiziqish tobora ortib bormoqda. Masalan, 2004 yilda bo'lib o'tgan parlament saylovida 228 nafar xorijiy kuzatuvchi qatnashgan bo'lsa, 2007 yil 23 dekabrda o'tgan Prezident saylovida jahonning 30 dan ortiq davlati va beshta xalqaro tashkilotdan 300 ga yaqin xalqaro kuzatuvchi va 23 mingdan ortiq mahalliy kuzatuvchilar qatnashdi. Bu galgi saylovda ham xalqaro va mahalliy kuzatuvchilarning ishtirok etishi uning demokratik printsiplariga mos tarzda o'tishiga xizmat qiladi.¹

Saylovlar jamiyatning demokratik qiyofasini ko'rsatish bilan birga, muayyan xalqning xuquqiy ongi-tafakkurini namoyon etadigan, ayniqsa, yoshlarning siyosiy faolligini shakllantirib boradigan muhim siyosiy voqeadir. Sababi jamiyatda boshqa hech bir jarayon yo'qqi, unda har bir fuqaro ishtirok etsa. Saylash yokm saylanish

¹ Abdusalomov M. Saylov-demokratiya ko'zgusi. Xuquq va burch. 2009 yil 10 son. 11 bet

oddiy hol emas. Bu imkoniyatlar zahirida mustaqil Vatanimiz taqdiri, uning parloq kelajagi turganligini his etish har birimizning kelajakka nechog'lik mas'ul ekanimizni anglatadi.¹

SHu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning erkin saylovlar, ularning demokratik jamiyat barpo etishda tutgan o'rni xaqidagi quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz: "Modomiki, biz demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish kabi ezgu maqsad sari intilayotgan ekanmiz, demokratiyaning bosh talabi bo'lmish erkin saylovlarni munosib tashkil qilish biz uchun ham qarz, ham farzdir".

¹ Najimov M. Muhim siyosiy jarayon. Turkiston,, 2009y. 4 noyabr

II- Bob.Fuqarolik jamiyati va saylovlar

2.1 Saylovlarda siyosiy partiyalar va xarakatlarning ishtiroki

O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - "Jamiyatimizda qanday partiyalar tuzilmasin, ularning soni qancha bo'lmasin, qaysi partiya oldiga qanday vazifa qo'yilmasin-ular o'z maqsadlariga, o'z g'oyalarini amalga oshirishga saylovchilarning ovozi, ya'ni ishonch-e'tiborini qozonibgina erishishi mumkin".

YUrtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Saylovlar jarayonida har qaysi davlat, har qaysi jamiyatda xilma-xil fikrlar, odamlarning hohish-irdasi, orzu-umidlari, ijtimoiy kayfiyatlar, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. SHu bilan birga, har qanday siyosiy harakatlar va kuchlar saylovga tayyorgarlik ko'rishi, o'z platformalarini aniq belgilab olishi- bularning barchasi tabiiy hol. Busiz o'zi hayot, taraqqiyot bo'lmaydi"¹

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonunning 1-moddasida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazishning asosiy printsiplari belgilangan bo'lib, unga ko'ra ushbu palataning 135 deputati hududiy, bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.²

Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir paytning o'zida faqat bitta siyosiy partiya a'zo bo'lishi mumkin.

Partiya mansubligiga ko'ra, fuqaroning huquqlarini har qanday cheklash, unga imtiyozlar yoki ustunliklar berish taqiqlanadi.

Siyosiy partiyalarga a'zolik yakka tartibda qayd etiladi. Siyosiy partiyalarning davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashuvi taqiqlanadi.

¹ Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7 jild.T. "O'zbekiston", 1999y. 310 bet

² O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonuni yangi tahriri// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining axborotnomasi.2008. №12, 637-modda

Siyosiy partiya tuzish tashabbuskorligi kamida ellik kishidan iborat bo'lishi, ular partiya ta'sis hujjatlarini tayyorlash, a'zolar tarkibini shakllantirish hamda ta'sis s'ezdi yoki konferentsiyasini chaqirish bo'yicha tashkiliy qo'mitani tuzishlari lozim.

Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi. Siyosiy partiyani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza u tushgan kundan boshlab bir oy muddat ichida ko'rib chiqiladi.

Siyosiy partiya ro'yxatdan o'tgan kundan e'tiboran yuridik shaxs maqomini oladi va o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Siyosiy partiya ro'yxatga olingani to'g'risidagi xabar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraktsiyalari o'z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan deputatlarning ta'sis yig'ilishlarida tuziladi. Fraktsiyalar Fraktsiya rahbari bergan tegishli ariza va ta'sis hujjatlariga asosan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan ro'yxatga olinadi.¹

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraktsiyasi quyidagi huquqlarga ega: Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibini tuzishda ishtirok etish; O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish to'g'risidagi tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilish; Qonunchilik palatasi deputatlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan siyosiy partiya fraktsiyasi parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etadi..

Siyosiy partiyalar fraktsiyalarining blokka birlashishi qonunda nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirishda ularning mustaqilligini cheklab qo'ymaydi.

Siyosiy partiyalar mulkiga oid masalalar qonunning 15-moddasida belgilangan bo'lib, unga muvofiq binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, nashriyotlar, transport vositalari, shuningdek, ustavda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur boshqa mol-mulk siyosiy partiyalarning mulki bo'lishi mumkin.

¹ Raxmonov A, Nasriev I, Mavlonov O'. Jamiyatni demokratlashtirishning muhim yo'nalishi. T. "Ma'naviyat", 2011 y 7-8 betlar

Siyosiy partiyalar faqat ustavda nazarda tutilgan vazifalarni bajarish maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi. Siyosiy partiyaning tadbirkorlik faoliyati natijalari uning moliyaviy hisobotida aks ettirilishi kerak.

Siyosiy partiyalarni moliyalashtirishning asosiy printsiplari: qonuniylik, ochiqlik, oshkoralik.

Siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish manbai O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining mablag'laridir.

Siyosiy partiya har yili qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda hamma tartibda moliya organlariga, davlat soliq xizmati organlariga, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Adliya vazirligiga hisobot davrida olingan hamda sarflangan moliyaviy va boshqa mablag'lar to'g'risida moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz" asarida siyosiy partiyalarning saylovlardagi ishtiroki masalasi xaqida quyidagilarni bayon qiladi: "SHunga erishish kerakka, mamlakatimiz siyosiy xayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topishi darkor. Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o'z ifodasini topishi lozim. Amaldagi ko'ppartiyaviylik-bu har xil qarash va g'oyalar o'rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan, muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydoni demakdir".

2007 yil 11 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan qabul qilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun mamlakatimiz siyosiy maydonidagi partiyalarga keng vakolatlar berish barobarida ular zimmasidagi mas'uliyatni ham oshirdi. Mazkur qonun siyosiy partiyalarning faoliyat yo'nalishi va

dasturlarini yanada rivojlantirish, ularning parlament quyi palatasi hamda mahalliy kengashlar ishidagi keng ishtirokini mustahkamlaydigan barqaror tizimni shakllantirishni ko'zda tutadi.¹

2008 yil 25 dekabrda qabul qilingan va 2009 yil 1 iyuldan “Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun saylov jarayonining huquqiy asoslarini yanada rivojlantirdi. Ushbu qonunga muvofiq, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinlarining soni 120 tadan 150 taga ko'paytirildi.

Saylov tizimi va saylov to'g'risidagi qonunlar yanada liberallashtirilgan va demokratlashtirilgani bois, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi Qonunga “Siyosiy partiyaning vakolatli vakili” deb nomlangan alohida 17-modda kiritildi.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi Qonunning 27-moddasidagi saylovchilarning yig'ilishlari uchastka saylov komissiyalari tomonidan tashkil etildi, degan qoida yangi tahrirda “Saylovchilarning yig'ilishlari siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil ravishda o'tkaziladi. Saylovchilarning yig'ilishlari o'tkaziladigan joy va vaqt, qoida tariqasida, uchastka saylov komissiyalari bilan kelishib olinadi” mazmunida berildi. Bu norma “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida”gi Qonunning 25-moddasiga ham kiritildi.¹

Siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar saylovoldi kampaniyasini yanada faolroq o'tkazishga erishishi uchun Qonunchilik palatasi deputaligiga nomzodlarning ishonchli vakillari sonini besh nafardan o'n nafarga ko'paytirish belgilandi. “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida”gi Qonunda ham ushbu normalar aks etgan.

Siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar saylov o'tkazish uchun o'z mablag'larini ixtiyoriy ravishda

¹ Raxmanov A. Nasriev I, Mavlonov O'. Jamiyatni demokratlashtirishning muhim yo'nalishi. T. “Ma'naviyat” 2011. 10-11 betlar.

¹ Latifov A. Saylovlarda siyosiy partiyalar va xarakatlar faolligi. Xuquq va burch. 2009y 10-son. 4 bet

berishlari mumkin. Bu mablag'larni Markaziy saylov komissiyasi saylov kampaniyasi vaqtida foydalanish uchun qabul qilib oladi.

O'zbekiston ekologiya harakatidan Qonunchilik palatasiga deputatlar sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ochiq hamda oshkoro amalga oshiriladi. Deputatlikka saylangan shaxslar Markaziy saylov kompaniyasida ro'yxatga olingan paytdan e'tiboran Qonunchilik palatasining deputati maqomini oladi. Ekologik xarakatdan saylangan deputatlarga Qonunchilik palatasida deputatlar guruhini tuzish, parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etish uchun bloklar tuzish huquqi berilgan. O'zbekiston ekologik xarakati oliy organining vakili Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar ro'yxatini Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etadi. Ro'yxatga quyidagilar ilova qilinadi:

O'zbekiston ekologik xarakati oliy organining mazkur xarakatdan Qonunchilik palatasiga deputatlar saylash to'g'risidagi qarori;

O'zbekiston ekologik xarakati oliy organi majlisi bayonnomasidan ko'chirma, unda O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasi deputati etib saylangan har bir shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, kasbi, lavozimi ish va yashash joyi ko'rsatiladi.

Markaziy saylov komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni etti kunlik muddat ichida tekshirib chiqadi va ularning ushbu qonun talablariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi. Markaziy saylov komissiyasi ro'yxatga olish uchun taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan nomuvofiqliklar va ushbu qonun talablaridan chetga chiqish xollari to'g'risida O'zbekiston ekologik xarakati oliy organining vakiliga belgilangan tartibda ma'lum qiladi.

O'zbekiston ekologik xarakatidan Qonunchilik palatasi deputatligiga saylov o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan xollarda takroriy saylov o'tkaziladi. O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasi deputatlarining takroriy saylovini o'tkazish tartibi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston ekologik xarakatidan Qonunchilik palatasiga saylangan ayrim deputatlarning vakolatlarini haqiqiy emas deb topgan

taqdirda, shuningdek, deputat chaqirib olingan, boshqa sabablarga ko'ra deputatlik vakolatlari muddatidan oldin tugatilgan hollarda yangi saylov o'tkaziladi.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining "o'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi" deb nomlangan asarida saylov va siyosiy partiyalar o'zaro bog'liqligiga shunday baho berib quyidagilarni ta'kidlaydi: "Agarda har qaysi partiya muayyan ijtimoiy toifa yoki guruhning manfaatini ifoda etadigan bo'lsa, demokratiyaning eng ta'sirchan mexanizmi bo'lgan saylovlar hisobidan dasturini amalga oshirish, o'z maqsadiga etish imkoniga ega bo'ladi.

2009 yil dekabr oyida davlat hokimiyati vakillik organlariga o'tkaziladigan saylov esa siyosiy partiyalar uchun avvalgi saylovlardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, bo'lib o'tadigan saylov 2007 yil 11 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun qabul qilingandan so'ng Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga bo'lib o'tadigan birinchi saylov bo'lib, mazkur Konstitutsiyaviy Qonunga asosan, saylov natijasida muvaffaqiyatga erishgan siyosiy partiyalarning xuquq va kafolatlari yanada kengayib, ularning qonunchilik hamda davlat boshqaruvi idoralari faoliyatiga, mamlakatimizda olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatga amaliy ta'sirini kuchaytirish yo'lida yangi-yangi imkoniyatlar vujudga keldi;

Ikkinchidan, 2009 yil 1 iyuldan "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni kuchga kirishi siyosiy partiyalarga islohotlarning samarali qonunchilik bazasini shakllantirishdagi roli va ta'sirini, saylov jarayonidagi va davlat xokimiyati vakillik organlarini shakllantirishdagi vakolatlarini kengaytirish va faolligini yanada kuchaytirishga imkon yaratadi.

¹ Latifov A. Saylovlarda siyosiy partiyalar va xarakatlar faolligi. Xuquq va burch. 2009y 10-son. 4 bet

Siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar saylovoldi kampaniyasini yanada faolroq o'tkazishga erishishi uchun Qonunchilik palatasi deputaligiga nomzodlarning ishonchli vakillari sonini besh nafardan o'n nafarga ko'paytirish belgilandi. "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunda ham ushbu normalar aks etgan.

Siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar saylov o'tkazish uchun o'z mablag'larini ixtiyoriy ravishda berishlari mumkin. Bu mablag'larni Markaziy saylov komissiyasi saylov kampaniyasi vaqtida foydalanish uchun qabul qilib oladi.

YUqoridagilardan kelib chiqib, saylov jarayonida siyosiy partiyalar faoliyatining mohiyati va ahamiyati xaqida bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Birinchidan, saylov hokimiyatni shakllantirish uchun kurashuvchi siyosiy kuchlarning qonuniy yo'l bilan shakllanishiga va sog'lom raqobat muhitining vujudga kelishiga xizmat qiladigan muhim siyosiy-huquqiy jarayondir;

Ikkinchidan, siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishga ko'maklashish va milliy siyosatni aniqlashtirish hamda rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi;

Uchinchidan, saylov jarayonida siyosiy partiyalar tomonidan davlat va jamiyat hayotini yanada rivojlantirishga oid, xalqning ma'lum qatlamini qo'llab-quvvatlash yuzasidan qilinadigan sa'y-xarakatlar, ilg'or g'oya va qarashlar kurashi orqali jamiyat hayotining demokratik printsiplar asosida rivojlanishi ta'minlanadi;

To'rtinchidan, saylov jarayonida siyosiy partiya saylov orqali o'zining tarafdorlarini, elektoratini aniqlash, o'z g'oya va dasturlarining hayotiyligini amalga ko'rishga muvaffaq bo'ladi. Aynan saylov jarayonida partiyalar o'zlarining asosiy ustuvor fikr-qarashlarini, hayotni qanday yaxshilash, islohotlarni qanday amalga oshirish, O'zbekiston deb atalmish mustaqil davlatning ertangi hayotini qanday barpo etish borasidagi g'oyalarni ilgari suradi.¹

¹ Hamidova Q. Siyosiy partiyalar faoliyatida saylovning ahamiyati. Xalq so'zi. 2009 yil 29oktabr

YUrtboshimiz Kontseptsiyada shunday deydi,- “SHu munosabat bilan quyidagi qonunchilik tashabbuslarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo’lur edi.

Birinchi, “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to’g’risida”gi Qonunning 27-moddasi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to’g’risida”gi Qonunning 25-moddasiga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish taklif etiladi.

Bu avvalambor partiyalararo raqobatning kuchayishi, saylovoldi tashviquotining shakl va usullari tobora turli-tuman va keng miqyosga ega bo’lib borayotgani bilan izohlanadi. SHuning uchun saylov qonunchiligida saylov kompaniyasining ushbu muhim bosqichini amalga oshirish jarayonida deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga teng sharoitlar yaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan normalarni nazarda tutish lozim”.¹

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. Xalq so’zi. 2010y. 13 noyabr

2.2. Saylovlar va ommaviy ahborot vositalari.

Mamlakatimizda saylov qonunchiligida ommaviy axborot vositalari vakillarining saylov kampaniyasini yoritib borish, saylov to'g'ri hamda qonuniy o'tishiga bilvosita ko'maklashish imkoniyati huquqiy kafolatlangan.

1999 yilda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisga, shuningdek, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlarda Konstitutsiya hamda saylovga doir qonunlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan bir qancha xalqaro xujjatlar asosiy huquqiy negiz bo'lib xizmat qilgandi.

Jumladan, ikki palatali parlamentni shakllantirishga qaratilgan ilk saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish uchun yangi, mukammal huquqiy negiz yaratishga jiddiy e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muayyan o'zgartirishlar kiritildi.

Davlat saylov, nomzodlar to'g'risidagi axborotni izlash, yig'ish va tarqatish erkinligini, saylov jarayonlarining ommaviy ahborot vositalarida xolisona yoritilishini ta'minlaydi. Ommaviy axborot vositalari qonunga muvofiq aholini saylov, nomzodlar ko'rsatish, ularning saylovoldi dasturlari, saylov kampaniyasining borishi, ovoz berish yakunlari va saylov natijalaridan xabardor etib borish, o'z faoliyatini qonun, qonun hujjatlari va davlatning xalqaro majburiyatlari doirasida amalga oshirish uchun mas'ul hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalarining saylovlarni yoritish jarayonidagi faoliyatini bir necha yo'nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalish ma'naviy-ma'rifiy yo'nalish bo'lib, bunda saylovlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati, tur va shakllari, mamlakatimizda o'tadigan saylovlarning ibratli jihatlari hamda bu boradagi xorijiy tajriba xaqida keng ko'lamli axborot va ma'lumotlar berib boriladi.

Ikkinchi yo'nalish-targ'ibot. Bu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi qonunchiligi imkon qadar keng sharhlanadi va talqin qilinadi, saylovchilarning huquq va majburiyatlari tushuntirib boriladi, shuningdek, siyosiy

partiyalarning va fuqarolarning saylovda ishtirok etishi bilan bog'liq dolzarb masalalar huquqiy siyosiy jihatdan har tomonlama yoritilishiga e'tibor qaratiladi.

Uchinchi yo'nalish axborot tarqatish faoliyatini qamraydi. Ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov bilan bog'liq seminar-treninglar, konferentsiya va forumlar, davra suhbatlari va turli xil boshqa tadbirlarning qanday o'tayotganini izchil yoritish asnosida, avvalo saylovchilarni saylov kuni, saylov kampaniyasining boshlanganligi, saylov uchastkalari tashkil etilishi va nomzodlarning ro'yxatga olinishi bilan bog'liq jarayonlar haqida muntazam xabardor etib boradi.¹

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan taqdim etiladigan saylov yakunlari to'g'risidagi axborotni va Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning ro'yxatini deputatlarning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, partiyaga mansubligi, egallab turgan lavozimi, ish va yashash joyi, saylov okrugining tartib raqami va nomini ko'rsatgan holda o'n kundan kechiktirmay e'lon qiladi Markaziy saylov komissiyasi e'lon qilish uchun taqdim etgan qarorlar, boshqa hujjatlar va materiallarni qonun doirasida keng yoritadi.

To'rtinchi yo'nalish-tashviqot. Ommaviy axborot vositalarida saylovoldi tashviqoti, ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon saylovchilarning muayyan siyosiy partiya va uning saylovoldi dasturini, muayyan nomzodni yoqlab yoki qarshi ovoz berishga turtki bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Saylov jarayonida oshkoralik va ochiqlik muhitini yaratishga ko'maklashish, har qanday ochiq axborotni tezkorlik bilan, haqqoniylik, tenglik va xolislik asosida tarqatishi, saylov jarayonining barcha sub'ektlari o'rtasidagi samimiy va oshkora bahslarni rag'batlantirish, ular o'rtasida o'zaro ayblovlar va haqoratlarga yo'l qo'ymasligi, shuningdek, nomzodlar xaqida yolg'on axborot tarqatish, siyosiy vaziyatni sun'iy ravishda keskinlashtirish va shaxsni haqorat qilish kabi xolatlarning imkon qadar oldini olishga intilishi lozim. Deputatlikka nomzodlarning saylovoldi faoliyatini noqonuniy moliyalashtirish hamda saylovchilarni o'z tomoniga og'dirish maqsadida ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning har qanday shakllarini

¹ G'ulom Mirzo. Saylovlar va ommaviy axborot vositalari. T.2004y. 22-23 betlar

ishonchli faktlar asosida beg'araz tanqidiy tahlil etish zarur. Bu kabi bir-biridan nozik va qaltis, shu bilan birga, bir-biridan murakkab hamda mas'uliyatli yumushlar jurnalistlardan, ommaviy axborot vositalaridan doimiy diqqat-e'tiborni talab etadi.

Beshinchi yo'nalish-tahlil va talqin. Bu yo'nalish asosan ijtimoiy fikrni o'rganish va natijalarni ommaviy axborot vositalarida yoritish bilan bog'liq jarayonlarni ko'zda tutadi. Ko'pgina mamlakatlarda jamoatchilik fikrini o'rganish yuzasidan o'tkaziladigan so'rovlarning ommaviy axborot vositalarida yoritilishini soluvchi alohida me'yorlar mavjud. Bu soha qonun bilan boshqarilishining ahamiyati shundaki, o'tkaziladigan tadqiqotlarning haqqoniylik darajasi va mezonlari so'rov o'tkazish uslublaridagi nuqsonlar aksariyat xollarda jamoatchilikka noma'lum bo'lib qolaverishi mumkin. Ana shunday kamchiliklar negizida, nuqsonli tarzda o'tkazilgan va ommaga e'lon qilingan xulosalar ijtimoiy fikrni to'g'ri ifoda etmasligi tabiiy. Aksincha, bunday hol jamoatchilik fikriga salbiy ta'sir ham ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Oltinchi yo'nalish-jamoatchilik nazorati. Ommaviy axborot vositalari o'zining yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyati bilan saylovlarning ochiq, oshkora va qonuniy o'tishiga ko'maklashishi barobarida, bevosita, o'ziga xos jamoatchilik nazoratini ham amalga oshiradi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida qayd etilishicha, "Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek, saylov kuni ovoz berish xonalarida, ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan bittadan kuzatuvchi, ommaviy axborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xarakatlardan kuzatuvchilar qatnashish xuquqiga egadirlar. Ularning vakolatlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak". Xuddi shu qoida "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida ham belgilangan.

SHunday qilib, avvalo, mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari, faoliyati erkinligi va saylov erkinligini ta'minlashga oid huquqiy asos yaratilganligi, shu jumladan, saylov to'g'risidagi qonun hujjatlarining yangilanganigaijobiy voqea

sifatida qaralmog'i kerak. Zero, ana shu huquqiy negiz bo'lajak saylovlar xalqaro saylov printsiplariga mos tarzda o'tishining o'ziga xos kafolatidir.

“Ijtimoiy fikr” markazidan olingan, 2004 yil yanvarigacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimiz aholisining umumiy soni 25 million 600 ming nafardan ziyod bo'lib, bugungi kunda shulardan 14,5 million kishi saylov huquqiga egadirlar. Ana shu saylovchilarning qariyb 40 foizini 18-30 yosh oralig'idagi navqiron kishilar, 50,9 foizni xotin-qizlar va 59,7 foizni qishloq aholisi tashkil etadi.

So'ralganlarning mutlaq katta qismi-86,6 foizi bo'lajak parlament saylovlaridan xabardor. Bunda “Ijtimoiy fikr” markazi mutaxassislarining fikricha avvalo mamlakat ommaviy axborot vositalari tomonidan saylovlar mazmun-mohiyati va saylov jarayonlariga tayyorgarlikning borishi keng yoritilgan muhim rol o'ynagan. Albatta, bu Markaziy saylov komissiyasi, amaldagi deputatlar, Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari, siyosiy partiyalar bu borada joylarda amalga oshirgan katta hajmdagi ishlarning ham natijasidir. SHu bilan birga, saylov bo'lishidan aholimizning 13,4 foizi bexabar ekan. Ular ichida 18-29 yoshlilar ko'pchilikni tashkil etishidan ko'z yumib bo'lmaydi. Demak, ana shu yo'nalishda axborot-tushuntirish ishlari yanada kuchaytirilishi maqsadga muvofiqdir.

Fuqarolarimizning siyosiy partiyalar haqida xabardorlik darajasi 2003 yil noyabr oyida o'tkazilgan so'rovdan buyon sezilarli darajada o'sgani kuzatilgan. Respublika bo'yicha so'ralgan kishilarning O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi faoliyatidan 89,1 foizi, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi faoliyatidan 56,9 foizi, Fidokorlar milliy demokratik partiyasi faoliyatidan 62,3 foizi, “Milliy tiklanish” partiyasi faoliyatidan 44,3 foizi, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi faoliyatidan 53 foizi xabardor ekanini bildirgan. Bu o'tgan davrda siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalari tomonidan axborot-targ'ibot ishlari kuchaytirilganligining natijasidir.

Deputat siymosini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutishi, shubhasiz. So'rov mobaynida saylovchilarning qanday axborotni ma'qul ko'rishi aniqlandi. So'ralganlarning aksariyat ko'pchiligi uchun mamlakat ichki

xayoti, shu jumladan, saylov kompaniyasining borishi haqida asosiy axborot olish manbasi respublika avlat telivideniesi hisoblanar ekan. SHu televidenie ko'rsatuvlarini muntazam ko'rib borishi haqida so'ralganlarning 86,5 foizi ma'lum qilgan.

Boshqa ommaviy axborot vositalarining ommaboplik darajasi anchagina past. Xususan, so'ralganlarning 35,6 foizi davlat radiostantsiyalarini, 30,6 foizi respublik matbuotini, 13,3 foizi Rossiya ommaviy axborot vositalarini, 8,7 foizi nodavlat radiostantsiyalarni 6,6 foizi nodavlat televideniени, 5,9 foizi mustaqil matbuotni, 1,5 foizi "Bi-Bi-Si", "Ozodlik" kabi xorijiy radio stantsiyalarni o'zlari uchun muhim va asosiy axborot manbai, deb hisoblaydi.

So'rovda eng ommabop axborot-yangilik tarqatuvchi teleko'rsatuvlar "Davr" va "Axborot" ko'rsatuvlari ekani aniqlandi. "Davr" ko'rsatuvlarini 41,9 foiz, "Axborot" ko'rsatuvlarini esa 37,4 foiz so'ralganlar muntazam ko'rib borar ekan.

So'ralganlarning har beshtasidan bittasi ya'ni 20,7 foizi muntazam ravishda, yarmiga yaqini ora-sira radio tinglashini, har uchtdan bittasi esa radio tinglamasligini bildirgan. So'ralganlar fikricha, "Vodiy sadosi" radiostantsiyasi eng ommabop va uni respondentlardan 32,1 foizi muntazam, 30,9 foizi ora-sira tinglaydi. Ikkinchi o'rinda "YOshlar" radiostantsiyasi-tegishlich 26,7 va 29,6 foiz. Keyingi o'rinlarda ommaboplik reytingi bo'yicha "Mash'al", O'zbekiston radiosining birinchi kanali, "Oriyat dono", "O'zbekim taronasi" radio stantsiyasi turadi.¹

So'rovda aniqlanishicha, respondentlarning faqat 15,9 foizi gazeta va haftanomalarni muntazam ravishda, 51,9 foizi ora-sira o'qiydi. So'ralganlarning har uchinchisi davriy nashrlarni umuman o'qimaydi. "Ijtimoiy fikr" markazi mutaxassislari tomonidan ushbu faktga jiddiy e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanganki, bu fikrga qo'shilmasdan ilojimiz yo'q.

Mamlakatimiz aholisi o'rtasida "Xalq so'zi", "Narodnoe slovo", "Pravda Vostoka", "Ma'rifat" kabi ijtimoiy-siyosiy gazetalar, shuningdek, viloyat, shahar va tuman gazetalari, bundan tashqari xordiq uchun mo'ljallangan "Darakchi", "Humo"

¹ G'ulom Mirzo. Saylovlar va ommaviy axborot vositalari. T.2004y. 30-31 betlar

gazetalari nisbatan ommabop davriy nashrlar ekanligini ham ushbu so'rov natijalari ko'rsatdi.

Yana bir muhim masala. So'rov mobaynida mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilayotgan yurtimiz siyosiy hayoti, saylov kampaniyasining borishi, siyosiy partiyalar faoliyati to'g'risidagi axborotlarning sifati, miqdori va tezkorligidan aholining qoniqish darajasi nechog'li ekanligi o'rganildi. "Sizga respublika ommaviy axborot vositalari taqdim etayotgan axborotlarning sifati, miqdori va tezkorligidan qoniqish hosil qilasizmi?" degan savolga respondentlarning 68,5 foizi "ha", 16, foizi "javob berishga qiynalaman", 9,9 foizi "yo'q" deb javob qaytargan, 5,6 foiz so'ralganlar javob berishni istamagan.

So'rov yakunlari yuzasidan "Ijtimoiy fikr" markazi mutaxassislari tomonidan 9 banddan iborat xulosalar berilgan. Biz ulardan mavzuimiz uchun bevosita ahamiyali bo'lganlarini keltirib o'tamiz.

SHunday qilib, so'rov natijalaridan ayon bo'lyaptiki, O'zbekiston aholisining ko'pchilik qismi o'zlarining saylov huquqlarini etarli darajada bilmaydi. Bu esa, o'z navbatida fuqarolarimizga saylovlar, saylov huquqi va fuqarolar erkinligiga oid qonunchilikni tanishtirish va tushuntirishga qaratilgan barcha turdagi targ'ibot-ma'rifat ishlarini kuchaytirishni taqozo etadi.

So'rov mamlakat aholisining siyosiy partiyalar faoliyatidan xabardorlik darajasi 2003 yil noyabrida o'tkazilgan so'rov natijalariga nisbatan sezilarli miqyosda o'sganligini ko'rsatdi va bu o'tgan davrda siyosiy partiyalar hamda ommaviy axborot vositalari tomonidan axborot-targ'ibot ishlari kuchaytirilganligi natijasidir. SHu bilan birga, 1999, 2002, 2003 va 2004 yillarda o'tkazilgan so'rovlarning qaysi tahlili yaqqol ko'rsatmoqda-ki, o'tgan davrda ko'pgina partiyalar o'z saylovchlarining muayyan qismida mahrum bo'lgan. So'ralganlarning fikriyaa, mavjud siyosiy partiyalar yuzaga kelgan bunday tashvishli holatni bartaraf etish, saylovchilarga o'z dasturiy maqsad va vazifalarini imkon qadar keng tushuntirib berish borasida sustkashlik qilmoqda.

Umuman olganda, Oliy Majlisga saylovlar arafasida aholi o'rtasida o'tkazilgan ushbu ijtimoiy so'rov mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy

islohotlar samaradorligini yana bir bor qat'iy tasdiqladi va yurtimiz fuqarolari kayfiyaida zohir bo'layotgan barqaror ijobiy o'zgarishlar buning yaqqol dalolatidir.

Saylov huquqi va ommaviy axborot vositalari erkinligi, so'z erkinligi-nafaqat huquq, ayni chog'da shu huquq sohiblariga muayyan majburiyatlar yuklaydigan mas'uliyat ham, demakdir.

Keng qamrovli hayotbaxsh o'zgarishlar axborot sohasini jadal rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayonining muhim tarikbiy qismiga aylanishi zarurligini taqozo etayotgan hozirgi yangilanishlar davri, o'z navbatida, mamlakat ommaviy axborot vositalari zimmasiga ham muayyan vazifalarni yuklaydi.

Birgina muammo-ommaviy axborot vositalarida tanqidiy materiallar berilishi masalasini olib ko'raylik. Avvalo, "tanqid" tushunchasining o'zi ham jurnalistlar tomonidan tamomila yangi mazmunda, eskicha qarashlardan farqli o'laroq, keng huquqiy ko'lamlarda talqin etila boshlanganini kuzatish mumkin.

"Kamchilikni yozish degani kimnidir do'pposlash, haq-nohaq badnom qilish degani emas. Kamchilik haqida sho'ro davridagi kabi feleton emas, balki tahliliy maqola yozish darkor. Bilamizki, sho'ro davridagi feletonlarda ishdagi kamchiliklar bilan bir qatorda (ba'zan masalaning bu tomoni chetda qolib ketardi) muayyan bir rahbarning shaxsiyati, hatto oilaviy ahvoligacha sharmandai sharmisor qilinar edi. Holbuki ma'lum bir korxona, xo'jalik yoki tashkilotdagi kamchilik va nuqsonlar xususida yozilganda, masala chuqur, atroflicha tahlil qilinishi, ularning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari osib berilmog'i, xolis ko'rsatilmog'i kerak".¹

Matbuot sahifalarida, radio to'lqinlari va televidenie ekanlarida, jurnalistlarning turli uchrashuv va muloqotlarida tez-tez o'rtaga tashlanayotgan bunday amaliy mulohazalardan xulosa shuki, jamiyatning bugungi hayoti matbuot va ommaviy axborot vositalarida o'zining qanchalik xolisona aksini topsa, jamiyatimizda shunchalik adolatli va to'g'riso'zlik muhiti hukmron bo'ladi.

Qolaversa, ezgu maqsad- adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidagi sa'y-harakatlar o'zining tezkor samaralarini bera boshlaydi. CHunki "YUtuqni-yutuq,

¹ Hazratqulov M. Taraqqiyotimizning yangi bosqichi.// "O'zbekiston ovozi", 2002, 31 avgust

kamchilikni-kamchilik, jinoyatni-jinoyat, xiyonatni-xiyonat, deb, hamma narsani o'z nomi bilan atash-tom ma'nodagi demokratik jamiyat matbuotining xaqiqiy qiyofasini belgilab beradi".¹

Saylov jarayonlarida ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar faoliyat ko'rsatadigan keng, ayni chog'da tezkorlik, aniqlik, halollik, holislik, jasorat va mas'uliyat talab etadigan maydon-axborot makonida kasbiy huquqlar suiiste'mol etilgan, ijtimoiy ahamiyatga molik muhim axborot yashirilgan yoki sohtalashtirilgan, turli mish-mishu bo'xtonlar ishonchli axborot sifatida taqdim etilgan materiallar hamda xabarlar uchrab turishi sir emas.

Konstitutsiyaning 19-moddasida fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqligi, shuningdek, fuqarolarning Konstitutsiya hamda qonunlarda mustahkamlangan huquq-erkinliklari dahlsizligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Kontseptsiyada ta'kidlaganidek, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunlarga "ovoz berish kuniga qadar qolgan besh kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoat fikri so'rovlari natijalarini, saylov natijalari, prognozlarini va o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni nashr etish (e'lon qilish), shuningdek, ularni umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan, Internet tarmog'iga) joylashtirish taqiqlanadi" degan normani kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu normaning yuqorida ko'rsatilgan qonunlarga kiritilishi saylovchilar xuquqlarining yanada ta'sirchan himoya qilinishi, muayyan nomzodga g'arazli munosabatda bo'lish, bu borada saylov qonunchiligi buzilishiningoldini olish imkonini beradi.²

Hozirgi kunda O'zbekistonda 1292 ta ommaviy axborot vositalari qonun doirasida o'zining yo'nalishidan kelib chiqib saylovlarni keng yoritadi. SHundan 775 tasi nodavlat OAV hisoblanadi.

¹ Karimov I.A. Havfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10.-T: O'zbekiston, 2002, 393-396 betlar

² Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. Xalq so'zi. 2010y. 13 yanvar

Bugungi kunda “Internet jurnalistika” yohud “Internet gazeta” kabi tushunchalar paydo bo’ldi.

Hozirda respublikada amaldagi qonunga muvofiq 196 ta xususiy veb-sayt ommaviy axborot vositasi sifatida ro’yhatga olingan.

Etti tilda bosma ommaviy axborot vositalari nashr etilmoqda. Televidenie va radiolarda ham bu amaliyot qo’llanilib kelinmoqda. Eshittirish va ko’rsatuvlar qardosh xalqlar tillaridan tashqari rus, ingliz tillarida ham efirga uzatilmoqda.

Veb-saytlar rus, o’zbek va ingliz tillarida faoliyat yuritadi.¹

¹ Milliy tiklanish. 2012 y. 27 iyun

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "Xalq davlat xokimiyatining manbaidir. Uning xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekiston barcha fuqarolarning munosib turmushini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak".

Saylov jarayoni bosqichlarining tarkibiy elementlariga qo'yiladigan talablar saylov xarakatlarini amalga oshirish, saylov xarakatlarini bajarish va saylov jarayoni bosqichi muddatlarining chegarasiga rioya etish, shuningdek, qonun bilan ko'zda tutilgan saylov jarayoni ko'rsatkichlarining ma'lum miqdoriy taqsimotining zarurligi bilan ifodalanadi. Asosiy saylov xarakatlari bajarilmagan hollarda, qonunda belgilab qo'yilgan muddatlarda saylov tartib-taomillarining to'laligicha bajarilishini ta'minlovchi xaraktaga qo'shimcha xarakatlar kiritiladi. Bunda qonun talablari buzilgan xolda bajarilgan saylov xarakatlari va saylov tartib-taomillari noqonuniy, yuridik kuchga ega emas, deb topiladi, buning natijasida qonunning barcha talablariga rioya etilgan holda ularning qayta bajarilishiga oid talab va tartib ishga solinadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda saylov tizimini yaratish va takomillashtirish masalasida qator e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Chunki saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini barpo etish borasidagi ezgu maqsadimizni ruyobga chiqarishning hal qiluvchi omili bo'lib hisoblanadi.

Asosiy Qonunimizning muqaddima qismida e'lon qilingan oliy maqsadlarga erishish yo'lida konstitutsiyaviy tuzumni yanada mustahkamlash borasida o'tkazilayotgan davlat-huquqiy islohotlarining samaradorligini ta'minlash demokratik talab va andozalarga to'liq javob beradigan saylov tizimining amalda bo'lishini talab etadi. Bu o'z navbatida, saylov tizimi huquqiy asoslarini muntazam rivojlantirib borish, ushbu huquqiy normalarni hayotga muvaffaqiyatli tarzda tatbiq etish va shakllangan demokratik an'analarni davom ettirishni ko'zda tutadi.

Boshqacha qilib aytganda, har qanday demokratik davlatda xalqning hohish-irodasi birlamchi manba sifatida e'tirof etiladi hamda ushbu tamoyil umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash va xalqaro umume'tirof etilgan qoidalarining ustuvorligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Demak, saylov huquqi va saylov jarayoni hamda davlat va jamiyat faoliyatining siyosiy sohasi o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Bunda saylov huquqi saylangan vakillarga hokimiyat vakolatlarini qo'lga kiritish hamda uni navbatdagi saylovlarda yangitdan saylangan vakillarga o'tkazish bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy faoliyatining muayyan jihatlarini tartibga solishni anglatadi, saylov jarayoni esa, sub'ektiv siyosiy huquqlarni amalga oshirishning shakli sifatida saylovchilarning davlat hokimiyatini tashkil etish va uni amalga oshirishda ishtirok etishlari uchun qonunlarda va amalda yaratilgan sharoitlarni aks ettiradi.

Demokratiyaning asl mohiyati o'zini o'zi boshqarish, o'z hayotini o'z qobiliyatiga, o'z tafakkuriga va o'z vijdoniga ko'ra qurishdir va buning oqibati uchun ma'suliyatni ham o'ziga olishdir. O'z hayotini erkin boshqarishgina insonni shaxs darajasiga ko'taradi. SHaxsning o'ziga ko'proq huquq berilgani va mas'uliyat yuklangani natijasida jamiyat demokratlashaveradi, davlatning yuki ham engillashadi.

Mamlakatimiz saylovlari erkin, ochiq-oshkora va demokratik ruhda o'tkazish borasida zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarni og'ishmay ado etib kelmoqda. Xususan saylov kampaniyasi ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internetda xolis yoritilishini kafolatlovchi zarur chorlar ko'rilmogda. Siyosiy partiyalar, nomzodlarning ommaviy axborot vositalaridan tenglik asosida, hech bir kamsitishlarsiz foydalanish huquqi kafolatlangan.

“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi so'rovlari natijalariga asoslangan ma'lumotlarning axborot bankini shakllantirish va shu ma'lumotlar saylov jarayonlari ishtirokchilariga, shuningdek, tanishib chiqish uchun so'ralgan xalqaro kuzatuvlarga taqdim etilishi borasida muayyan ishlar yo'lga qo'yilgan.

Saylovning ochiqqligini ta'minlaydigan, ovoz berish yakunlari va saylov natijalariga nisbatan ishonch darajasini oshiradigan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish borasida samarali natijalarga erishilayotir.

Muxtasar aytganda, bo'lajak O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi nainki erkinligi, ochiq va oshkoraligi, demokratik ruhi hamda xosligi bilan ayni chog'da, aksariyat saylovchilarning bu jarayonlardan har tomonlama xabardorligi, ularga ongli munosabati va shu tufayli saylov jarayonlaridagi faolligi bilan avvalgi saylovlardan ajralib turishiga ishonchimiz komil.

Zotan, mustaqillik yillarida fuqarolarimizning saylovlarga mamlakatimiz hayotidagi eng muhim jamiyatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatiga, demakki, har bir saylovchi taqdiriga ta'sir ko'rsatadigan siyosiy voqea sifatida yondashuvi kuzatilmoqda. Bu –istiqlol davrida erishilgan eng katta yutug'imiz, bu-saylovchilarimizning siyosiy va fuqarolik saviyasi etukligining, yurtdoshlarimiz o'z hayoti, o'z kelajagini umume'tirof etilgan demokratik qadriyatlar asosida qurishga qodir ekanliklarining yaqqol namoyonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston", 2012y.
2. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild. T. "O'zbekiston" 2004 y.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T. "O'zbekiston" 2010y
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T. "O'zbekiston", 1999y
5. Karimov I.A. Parlament-jamiyat hayotining ko'zgusi.// o'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13 Toshkent "O'zbekiston", 2005y
6. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyoti. T. "O'zbekiston" 2007y.
7. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T. "O'zbekiston" 2005y.
8. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. T. "O'zbekiston", 2003y
9. Karimov I.A. Vatan ozodligi-oliy saodat. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. T. "O'zbekiston", 2000y
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. T. "O'zbekiston", 2000y.
11. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1994y 10-son.
12. O'zbekiston respublikasining 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonuni.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997y. 2 son
13. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. T. "Adolat", 2004y

14. “Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi”, 1948y 10 dekabr// inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. T. “Adolat”, 2004y
15. O'zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida”gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2004y. 5 son
16. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 2002 y. 12 son
17. Abdusattarov J. Yangi parlament saylovlarida siyosiy partiyalarning roli. Demokratlashtirish va inson huquqlari. T-2004y
18. Abdusalomov M. Saylov demokratiya ko'zgusi. Xuquq va burch. 2009y. 10 son
19. Ahmedov D, Hoshimhonov A O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi va jarayoni. T. “O'zbekiston”, 2007 y
20. Abdullaev J. Husanova M Saylov huquqi erkinligining kafolati. Xalq so'zi. 2013y. 23 yanvar
21. Abdusalomov M. Saylov jarayoni demokratlashuvining muhim kafolatlari. O'zbekiston ovozi. 2013 y. 29 yanvar
22. Turg'unov O, Bekov I “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga sharhlar. T. “O'zbekiston”, 2007y
23. Odilqoriev H, Azizov N. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi qonunchiligining rivojlanishi. T.”Adolat”, 2007y
24. Raxmonov A. Nasriev I. Mavlanov O'. Jamiyatni demokratlashtirishning muhim yo'nalishi. T.”Ma'naviyat” 2011y
25. G'ulom Mirzo, Xidirov S O'zbekiston respublikasi prezidenti saylovi va ommaviy axborot vositalari. T. “O'zbekiston”, 2007y
26. G'ulom Mirzo Saylovlar va OAV. T. 2004y.
27. Latifov A Saylovlarda siyosiy partiyalar va xarakatlar faolligi. Huquq va burch. 2009y. 10 son

- 28.Nasriev I. Fahrutdinov SH, Rahmonov A Demokratik saylov tizimi va uning huquqiy asoslari. T. “Ma’naviyat” 2011 y.
- 29.Saidov A. Mejdunarodnoe pravo i izbiratelnoe zakonodatelstvo. T.TGYUI. 2004g.
- 30.Xusanov O. Konstitutsiyaviy huquq. T “Ilm ziyo” 2006y.
- 31.Hamidova K. Siyosiy partiyalar faoliyatida saylovning ahamiyati. Xalq so’zi. 2009yil 29 oktabr